

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



MAKROIQTISODIYOT



Guliston-2006

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim
Vazirligi**

A. A. Abduvohidov, O.R. Rayimberdieva

Makroiqtisodiyot

Guliston-2006

Abduvohidov A. A., O. R. Rayimberdieva "Makroiqtisodiyot". Guliston. 2006 y. 75 b.

Ushbu o'quv qo'llanma 3340170 - bank ishi, 3340610 - moliya yo'nalishlarida o'qitilayotgan "Mikroiqtisodiyot" fani dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, fanning makroiqtisodiyot bo'limi bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan mashq va masalalar to'plam shaklida keltirib o'tilgan. Qo'llanmada mashq va masalalarning rangbarangligiga alohida e'tibor berilgan, jumladan amaliyot mashg'u-lotlarining jonli tarzda o'tishini ta'minlash maqsadida, qo'llanmaga turli mavzudagi iqtisodiy o'yinlar, testlar va krossvordlar kiritilgan. O'quv qo'llanma biznes maktab, iqtisodiyot yo'nalishidagi kasb - hunar kollejlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ham keng foydalanishlari mumkin.

Абдувахидов А.А., Райимбердиева О.Р. «Макроэкономика». Гулистан 2006 г. 88 стр.

Данное учебное пособие подготовлено на основе типовой программы «Микроэкономики» обучающиеся по направлениям 3340170 – банковское дело, 3340610 – финансы, в нем приведены задачи и упражнений в виде сборника по разделу макроэкономика подготовленных на основе современных педагогических технологий. В учебном пособие особое внимание уделено на разнообразию задач и упражнений, в частности для обеспечения интерактивного проведения практических занятий в структуру пособия включены экономические игры, тесты и кроссворды по разным темам.

Учебное пособие предназначено для студентов колледжей и бизнес школ, а также из него могут пользоваться бакалавры высших учебных заведений, обучающиеся по экономическим направлениям.

Abdulahidov A. A., Rayimberdieva O.R. "Macroeconomy" Gulistan 2006. 88p.

The certain educational aid was prepared on the basis of typical program "micro economy" for the student 3340170 – banking, 3340610 – finance it includes tasks and exercises collections of macro economy prepared on the basis of modern pedagogic technology. The main attention was given to variety of tasks and exercises, in particular to interactive practical lessons to the structure of aid added economic games, tests and crosswords on different themes.

Educational aid is intended to students of colleges and business schools, as well as it may use by students of high education of economy directions.

Ma'sul muharrir: i. f. n. dos. Sattorqulov O. T.

Taqrizchilar: i.f.d., prof. A. Mamatov

i.f.d., prof. B Salimov

© Guliston DU, 2006 y.

Kirish

Iqtisodiyot ma'lumki o'z ob'ektini o'rganish jihatidan mikro va makro darajadagi iqtisodiyotga bo'linadi. Mikroiqtisodiyot milliy iqtisodiyotning tashkil etuvchilari bo'lmish iqtisodiy birliklar korxonalar va alohida uy xo'jaliklarining bozordagi o'zaro iqtisodiy munosabat-larini tahlil etsa, makroiqtisodiyot milliy xo'jalik miqyosida iqtisodiy tahlil yuritadi. Makroiqtisodiyot tahlil etuvchi asosiy iqtisodiy muammolar qatoriga, milliy iqtisodiyotda ishsizlik, inflyasiya, makroiqtisodiy barqarorlik, makroiqtisodiy nobarqarorlik muammolarini kiritish mumkin. Birinchidan, makroiqtisodiyot - bu oddiy quyi xo'jalik bo'g'inlarining mexanik yig'indisi emas. U barcha xo'jalik elementlarini yaxlit tizimga keltiruvchi mustahkam aloqalar umumiyligini ifoda etadi.

O'zaro yaqinlashtiruvchi munosabatlar tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) ishlab chiqarishning yirik tarmoqlari, sohalari o'rtasidagi umumiy mehnat taqsimoti:
- b) ishlab chiqarishning yirik tuzilmaviy bo'linmalarning kooperasiya-lashuvi:
- v) yagona iqtisodiy kenglikni tashkil etuvchi, milliy bozor.

Bunday integrasiyalashuvning natijasida milliy xo'jalik deb atash qabul qilingan makrotizim tashkil topadi. Ikkinchidan, makroiqtisodiyotning moddiy asosi bo'lib, milliy boylik hisoblanadi.



**O'zbekistonning mineral xom -
ashyo zahiralarini 3,3 trillion
AQSh dollariga ba-
holanmoqda.**

Milliy boylik - tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va insonlar hayotini ta'minlashning zaruriy shartlarini tashkil etuvchi, mamlakat resurslarining umumiyligidir. Zamonaviy statistik tasavvur-larga ko'ra, Milliy boylik tarkibiga quyidagilar kiradi: a) nomoliyaviy ishlab chiqarish aktivlari (asosiy fondlar, moddiy aylanma mablag zahiralar, qimmatliklar):

Mikro va makroiqtisodiyotning o'zaro taqqoslanma tahlili

№	Mikroiqtisodiyot	Makroiqtisodiyot
---	------------------	------------------

1	Bozor munosabatlarining sub'ektlari	
	1) alohida ishlab chiqaruvchi 2) alohida iste'molchi.	1) yalpi ishlab chiqaruvchilar; 2) yalpi iste'molchilar; 3) davlat; 4) ijtimoiy ins-titutlar; 5) xorij.
2	Bozor munosabatlarini boshqarish sub'ekti	
	mavjud emas.	davlat (hukumat)
3	Tahlil etiluvchi bozor	
	Aniq tovar yoki xizmat bozori.	barcha tovar va xizmatlar bo-zori.
4	Tahlil etiluvchi bozor holati	
	xususiy.	umumiqtisodiy
5	Foydalaniluvchi ko'rsatkichlar	
	a -narx;	-umumiy narx darajasi;
b	-talab;	-yalpi talab;
v	-taklif;	-yalpi taklif;
g	-mahsulot;	-yalpi milliy mahsulot;
d	-daromad;	-yalpi milliy daromad;
e		-inflyasiya;
j		-ishsizlik;
z		-iqtisodiy o'sish va shu kabi.
6	O'rganiluvchi markaziy muammo	
	talab va taklif muvozanati.	$AD=AS$ bo'lgan holatda ishlab chiqarish hajmi.
7	Dastlabki tarixiy iqtisodiy maktab	
	Neoklassik maktab	Keyns maktabi

b) ishlab chiqarilmagan, shu jumladan moddiy aktivlar (er, foydali kazilmalar, suv resurslari);

v) nomoddiy aktivlar (ixtirolardan foydalanish uchun lisenziyalar, o'tkaziladigan shartnomalar va hokazo);

g) moliyaviy aktivlar (oltin, valyuta, aksiyalar va boshqalar).



Respublikamizda yiliga 70 - 80 tonna sof oltin qazib chiqaril-moqda. Mamlakatimiz oltin zahira-lari bo'yicha jahonda etakchi o'rin-lardan birini egallaydi.

Shuningdan, makroiqtisodiyot umumiy manfaat va ehtiyojlarni ruyobga chiqarishga qaratilgan o'zining xususiy xo'jalik asosiga tayanadi. Bu erga:

a) davlat tomonidan moddiy ne'mat va xizmatlarning sezilarli tarzda o'zlashtirilishi:

- b) ijtimoiy tovarlar ishlab chiqarish va ularning jamoaviy iste'molini tashkil etish;
v) umumiy infratuzilma kiradi.



Milliy iqtisodiyotimiz rivojlangan transport - kommunikasiya tarmoqlariga ega.

Milliy xo'jalik namoyon bo'lish shakllaridan biri, jamiyat manfaatlarini ko'zlab, davlat tomonidan iqtisodiy siyosatning o'tkazilishi hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyoti miqyosida amalga oshiriluvchi iqtisodiy siyosat-ning maqsadlarini quyidagilar tashkil etadi:

- iqtisodiy o'sish;
- maqbul bo'lgan bandlik;
- iqtisodiy samaradorlik;
- barqaror narxlar darajasi;
- iqtisodiy erkinlik;
- daromadlarni odilona taqsimlash;
- iqtisodiy ta'minlanganlik;
- tashqi savdo balansi.

Makroiqtisodiyot milliy iqtisodiyot ko'lamida ish ko'radi. Milliy iqtisodiyot - faoliyati millat ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan xo'jalik sub'ektlarining davlat miqyosidagi hatti - harakatini ifoda etadi. milliy iqtisodiyot ochiq yoki yopiq tavsifga ega bo'lishi mumkin. **Ochiq iqtisodiyot** - bu, boshqa mamlaktlar bilan o'zaro manfaatli shartlar asosida savdo-iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi iqtisodiyotdir. **Yopiq iqtisodiyot**- bu, barcha tovar va xizmatlarni o'zida ishlab chiqarishga intiluvchi, boshqa mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni cheklashga harakat qiluvchi iqtisodiyotdir.

Ushbu o'quv qo'llanma makroiqtisodiy jarayonlarning mohiyatini amaliy jihatdan yanada chuqurroq tushunib olishga va tegishli xulosalar yasashga imkon beradi deb o'ylaymiz.



Milliy iqtisodiyot: asosiy natijalar va ularni o'lchash

Mamlakatning iqtisodiy holati tahlili yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi, milliy daromad, jamiyat daromadlari va xarajatlari tuzilmasini aks ettiruvchi milliy hisoblar tizimiga asoslanadi.

Milliy hisoblar - bu, bir tomondan milliy hisoblar tizimi bo'lsa, boshqa bir tomondan esa - davlat tomonidan makroiqtisodiy jarayonlarni tartibga solishning muhim vositasidir.

Milliy hisoblar tizimi ikki yoqlama yozishning buxgalteriya tomoyillariga asoslangan bo'lib, o'zida ijtimoiy ishlab chiqarish ishtirokchilari o'rtasidagi tovar va daromadlarning umumlashgan holdagi harakatini ifodalaydi.

Milliy hisoblar tizimi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- 1) iqtisodiy siyosat;
- 2) iqtisodiy bashoratlash;
- 3) aholi turli qatlamlarining turmush darajasini baholash va uni boshqa mamlakatlar turmush darajasi bilan solishtirish;
- 4) iqtisodiy nazariyani amaliyot bilan bog'lash.

Milliy hisoblar tizimi quyidagi o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimidan tashkil topadi:

- **Tovar va xizmatlar yaratish**- ma'lum davr mobaynida mamlakat rezidentlari tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarning umumiy yig'indisi.
- **Oraliq iste'mol**- hisobot davrida ishlab chiqarish jarayonida to'la iste'mol etiluvchi yoki tayyor mahsulotga transformasiyalanuvchi tovar va xizmatlarning qiymatidan iborat bo'ladi. Asosiy kapital iste'moli oraliq iste'mol tarkibiga kirmaydi.
- **Yalpi qo'shilgan qiymat**- tarmoqlar darajasida tovar va xizmatlar yaratish va oraliq iste'mol o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.
- **Sof soliqlar**- soliqlar qiymatidan subsidiyalarning ayirmasiga teng.
- **Yalpi ichki mahsulot**- milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatlar va sof soliqlarning yig'indisi sifatida hisoblab topiladi.
- **Yalpi (sof) foyda**- yollanma ishchilar uchun ish haqi to'lash, ishlab chiqarish va importga sof soliqlarni ayirib tashlangandan so'ng, ishlab chiqaruvchi tasarrufida qoladigan qo'shilgan qiymatning bir qismi.
- **Asosiy kapital iste'moli**- asosiy kapital qiymatining moddiy (jismoniy) va ma'naviy eskirishi natijasida qiymatining kamayishini ifoda etadi.
- **Birlamchi daromadlar qoldig'i** - barcha birlamchi olingan va to'langan daromadlar o'rtasidagi farq.
- **Transfertlar**- bir institusional birlikning ikkinchi institusional birlikka evaziga hech bir narsa olmasdan biror bir tovar, xizmat yoki aktiv taqdim etishini ifoda etadi. Odatda joriy va kapital transfertlar farqlanadi. Joriy transfertlar o'z ichiga soliqlar, ijtimoiy sug'urta ajratmalari, nafaqalar, ixtiyoriy badallar, jarimalar va shu kabi-larni qamrab oladi. Kapital transfertlari ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqining bir birlikdan ikkinchi birlikka hech qanday to'lov evazisiz berilishini ifoda etadi.
- **Tasarrufdagi daromad**- institusional birlikning yakuniy iste'mol va jamg'armalar uchun sarflaydigan daromadi.
- **Yakuniy iste'mol**- yakuniy iste'mol uchun mo'ljallangan barcha institusional birliklarning xarajatlari yig'indisidir.

- **Jamg'armalar-** iste'mol uchun yo'naltirilmagan tasarrufdagi daro-madning qolgan qismini ifoda etadi.
- **Noishlab chiqarish, nomoliyaviy aktivlar va erning sof xaridi.**
- **Sof kreditlash (+) yoki sof qarzдорlik (-)**
- **Sof eksport.**

Milliy ishlab chiqarish hajmini o'lchashga xizmat qiluvchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, Yalpi milliy mahsulot xizmat qiladi. U yil davomida iqtisodiyotda yaratilgan yakuniy tovar va xizmatlarning bozor qiymatini ifoda etadi.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM)ni umumiy tarzda uch usul bilan o'lchash mumkin: yo ushbu yilda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni xarid qilish uchun sarflangan jamiyat xarajatlarini jamlash, yohud shu yilning o'zida mahsulot ishlab chiqarish natijasida olingan pul daromadlarni jamlash yoki yil davomida iqtisodiyot tarmoqlarida yangidan yaratilgan qiymatlarni jamlash bilan.

YaMMni hisoblashda hisobga olinadigan asosiy xarajatlar tarkibiga iste'mol xarajatlari, investisiyalar, tovar va xizmatlarning davlat xaridlari va sof eksport kiradi.

YaMM tarkibida faqatgina yakuniy iste'mol uchun mo'ljal-langan iqtisodiy ne'matlar hisobga olinadi.

Jamiyat daromadlari tarkibiga kapital iste'moli uchun ajratmalar, egri soliqlar, yollanma xodimlar mehnatini rag'batlantirish, renta to'lovlari, foiz, mulk daromadlari va kooperasiyalar foydasi kiritiladi.

Makroiqtisodiy natijalarni o'lchashda YaMM bilan bir qatorda Yalpi ichki mahsulot, Milliy daromad kabi ko'rsatkichlardan ham keng foydalaniladi.

YaMM milliy iqtisodiyot ko'lamlarini o'lchashda keng qo'llanilsada, unga bir qator kamchiliklar xosdir:

- bir qator ijtimoiy ne'matlar bozor qiymatiga ega emas, shuning uchun ular shartli qiymatlarda hisobga olinadi;
- YaMMda xufyona iqtisodiyot ko'lamlari hisobga olinmaydi;
- uy xo'jaliklarida yaratiluvchi va iste'mol etiluvchi ne'matlar hisobga olinmaydi;
- inflyasiya sharoitida YaMMni bozor narxlarida hisoblash uning haqiqatdagi qiymatini aks ettira olmaydi.

Yuqoridagidan kelib chiqqan holda, YaMMning nominal va real qiymatlari farq qilinadi. Nominal YaMM joriy bozor narxlarida hisoblansa, Real YaMM doimiy narxlarda hisoblanadi.

Jamiyat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishini to'laroq aks ettirish maqsadida "**sof iqtisodiy farovonlik**" ko'rsatkichidan ham foydalaniladi.

? Asosiy tushuncha va terminlar:

- a) Sof investisiyalar:
- b) Yalpi milliy mahsulot.
- v) Yalpi ichki mahsulot.
- g) Sof milliy mahsulot.

- d) Narxlar indeksi.
- e) O'suvchi iqtisodiyot.
- j) Turg'un iqtisodiyot.
- z) Amortizasiya.
- i) Nominal YaMM.
- k) Real YaMM.

1. Yil davomida mamlakatda ishlab chiqarilgan barcha yakuniy tovar va xizmatlarning umumiy bozor qiymati.
2. Yalpi investisiyalar va kapital iste'moli uchun ajratmalar teng bo'lgan iqtisodiyot.
3. Yalpi investisiyalar amortizasiyalardan ortiq bo'lgan iqtisodiyot.
4. Umumiy narxlar darajasi o'zgarishlarini hisobga olmagan holda, joriy narxlardao'lchangan YaMM.
5. Umumiy narxlar darajasi o'zgarishlarini hisobga olgan holda, asos yil narxlarida o'lchangan YaMM.
6. Kapital iste'moli uchun ajratmalar.
7. Joriy yildagi "bozor xaltasi" umumiy narxining asos yildagi o'xshash "bozor xaltasi" umumiy narxiga nisbati.
8. Yalpi investisiyalar minus amortizasiya.
9. Rezidentlar tomonidan yaratilgan barcha qo'shilgan qiymatlar yig'indisi.
10. YaMM dan kapital iste'mol uchun ajratmalar ayirmasi.

? *To'g'ri - noto'g'ri:*

1. Nominal YaMM Real YaMMga nisbatan narxlar o'sishi hisobiga YaMM oshishini ko'rsatadi.
2. YaMM ko'rsatkichi aholi turmush darajasini to'liq aks ettiruvchi yagona ko'rsatkichdir.
3. Sof iqtisodiy farovonlik ko'rsatkichi aholi turmush darajasini birmuncha ishonarli tarzda ifoda etadi.
4. Milliy hisoblar tizimi yordamida davlatning iqtisodiy siyosati amalga oshiriladi.
5. Transfert to'lovlari oluvchi buning evaziga davlatga biror narsa to'lashi zarur.
6. Yangi uy kurilishi uchun uy xo'jaliklarining xarajatlari iste'mol xarajatlari tarkibiga qo'shiladi.
7. Moliyaviy operatsiyalar qimmatbaho qog'ozlar, valyuta, kredit operatsiyalarini ifoda etadi.
8. Milliy hisoblash tizimining muhim vazifalaridan biri narxlar o'sishini tartibga solishdir.

? *Testlar:*

1. Transfert to'lovlari - bu:

- a) uy xo'jaliklariga biror narsa evazisiz to'lovlar;
- b) hukumat tomonidan faqatgina alohida individlarga to'lov;

- v) MD tarkibiga kiritilmaydigan daromad tashkil etuvchilari;
- g) ish haqi, nafaqalar, yordam pullari;
- d) kapital iste'moli uchun ajratmalar.

2. YaMM - amortizasiya = ...

- a) MD;
- b) YaIM;
- v) SMM;
- g) shaxsiy daromad;
- d) tasarrufdagi daromad.

3. Ish haqi:

- a) YaMM ni daromadlar oqimi usuli bo'yicha;
- b) YaMM ni xarajatlar oqimi usuli bo'yicha;
- v) sof eksportni;
- g) davlat korxonalariga sof subsidiyalarni hisoblashda hisobga olinadi;
- d) barcha javoblar noto'g'ri.

4. Quyida sanab o'tilgan jamlanma kattaliklardan qaysi biri MD hajmini aniqlashda foydalanilmaydi?

- a) kooperasiyalar foydasi;
- b) davlat transfert xarajatlari;
- v) olingan kredit uchun tadbirkorlar to'laydigan foiz;
- g) renta daromadlari;
- d) ish haqi va yordam pullari.

5. YaMM va sof milliy mahsulotni aniqlashda takroriy hisob quyidagilarni jamlashda vujudga keladi:

- a) po'lat quyish sanoatida yaratilgan sof qo'shilgan qiymat;
- b) un va un mahsulotlari (nonvoychilik) sanoati zahiralarining o'sishi;
- v) temir rudasi va cho'yan ishlab chiqarish;
- g) nonvoychilik sanoati va uning mahsulotlarini sotishda yara-tilgan qo'shilgan qiymat;
- d) sotib olingan iste'mol buyumlari va ishlab chiqarish vositalarining umumiy hajmi.

6. Quyidagi ta'riflardan qaysi biri YaMMni xarajatlar oqimi bo'yicha hisoblashga tegishli:

- a) ushbu yilda jami mahsulot ishlab chiqarishdan olingan daromadlarni jamlash;
- b) yakuniy mahsulotga barcha xarajatlarni jamlash.

7. YaMM deflyatori - bu nominal YaMMning ...ga nisbatidir.

8. Sof milliy mahsulot = YaMM - ...

? Mashqlar:

1. Aytaylik, Milliy iqtisodiyot X (iste'mol tovari) va U (ishlab chiqarish vositasi) ishlab chiqarsin. Joriy yilda 500 birlik X mahsulot (har bir birlik - 2 dollardan) va 20 birlik U mahsulot (har bir birlik 10 dollardan) ishlab chiqarilgan, yil yakunida

esa 5 ta foydalanib bo'lingan mashina (U tovar)ni yangisiga almash-tirish lozim. U holda quyidagilarni hisoblang:

- a) YaMM qiymatini.
- b) SMM qiymatini.
- v) Iste'mol va Yalpi investisiyalar hajmini.
- g) Iste'mol va sof investisiyalar hajmini.

2. Quyidagi keltirilgan, milliy daromadlar hisoblaridan foydalangan holda: a) YaMM, b) SMM, v) MD ni hisoblang (mlrd so'mda).

Yollanma xodimlarning ish haqi		194,2
Tovar va xizmatlar eksporti	13,4	
Amortizasiya		11,8
Tovar va xizmatlarning davlat xaridi	59,4	
Biznesga egri soliqlar	12,2	
Sof xususiy ichki investisiyalar	52,1	
Transfert to'lovlari	13,9	
Tovar va xizmatlar importi	16,5	
Daromad solig'i		40,5
SHaxsiy iste'mol xarajatlari	219,1	

? Aqliy trening:

1. Nima uchun YaMM ko'rsatkichi jamiyat iqtisodiy farovonligini to'liq ifodalab bera olmaydi? Siz iqtisodiy farovonlik ko'rsatkichini ishonchli tarzda ifodalab bera oladigan qanday ko'rsatkichlardan foydalanishni tavsiya etgan bo'lar edingiz?

1. Iqtisodiyotda boylik deyilganda aktivlar zahirasi tushuniladi: naqd pullar, aksiyalar, ko'chmas mulk va hokazo, daromad deyilganda esa - ma'lum vaqt birligidagi pul tushumlari oqimi tushuniladi. Daromadlarning quyidagi shakllari farqlanadi: renta - tabiiy resurslar, erdan foydalanishdan olingan daromad; foiz - kapital uchun daromad: ish haqi va foyda - ishlab chiqarish omillaridan foydalanishdan daromad. Bu tushunchalarning xususiyatlarini tavsiflang, ularning o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsating.



Makroiqtisodiy muvozanatsizlik: bozor iqtisodiyotining siklli rivojlanishi

Bozor iqtisodiyotida siklli rivojlanish, ishsizlik, narxlarning inflyasion o'sishi bilan ifodalanuvchi iqtisodiy beqarorlik holatlari mavjud bo'ladi.

Iqtisodiy sikl, qoidaga muvofiq yuksalish, tushkunlik, turg'unlik va jonlanish fazalaridan iborat bo'lsada, biroq uning shiddatligi, davomiyligi u rivojlanayotgan aniq shart sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiyotning siklli rivojlanishini tavsiflash uchun ishlab chiqarish hajmining o'zgarishini ifoda etuvchi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ishlab

chiqarishning ortda qolishi ishlab chiqarishning imkon darajasi bilan haqiqatdagi ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi farq sifatida baholanadi. Ishlab chiqarish hajmlarining o'zgarishi inflyasiya va ishsizlik darajalarining o'zgarishi bilan uzviy bog'liqdir.

Odatda, iqtisodiy sikllarning quyidagi ko'rinishlari farqlanadi:

- Kondrat'evning katta sikllari (48-55 yil);
- Katta sikllar (8-10 yil);
- Kitchinning kichik sikllari (2-3 yil);
- Mavsumiy (yarim yil) va hokazo.

Odatda barcha iqtisodiy ko'rsatkichlar quyidagi turlarga ajratiladi:

- Ilgarilovchi, ya'ni sikl fazasi kirib kelguncha o'zgaruvchi ko'r-satkichlar;
- Kechikuvchi yoki ortda qoluvchi, ya'ni sikl fazasidan so'ng o'zga-ruvchi ko'rsatkichlar;
- Mos tushuvchi ko'rsatkichlar, ya'ni o'zgarish sikl fazasiga mos tarzda yuzaga chiqadi;
- Prosiklik, ya'ni yuksalish fazasida o'suvchi, tushkunlik fazasida pasayuvchi ko'rsatkichlar (mahsulot ishlab chiqarish hajmi, narxlar darajasi, pul aylanish tezligi);
- Kontrsiklik, ya'ni tushkunlikda o'suvchi, yuksalishda pasayuvchi ko'rsatkichlar (ishsizlik darajasi);
- Asiklik, sikl fazalariga (yuksalish, tushkunlik) bog'liq bo'lmagan ko'rsatkichlar (eksport hajmi).

Iqtisodiy sikllar:

- yangi texnik ishlanmalar va ilmiy ixtirolar;
- urushlar;
- aholi ko'chishi kabi omillar natijasida yuzaga chiqadi.

Ishsizlik siklik, friksion, tuzilmaviy shakllarda rivojlanadi. Friksion va tuzilmaviy ishsizlik bozor tizimining amal qilish nuqtai nazaridan ma'qul ko'rinish hisoblanadi.

Shuning uchun to'labandlik, hisoblashda friksion va tuzilmaviy ishsizlik hisobga olinuvchi ishsizlikning tabiiy darajasi bilan mos tushadi. Ishsizlikning tabiiy darajasi odatda 5-6 % ni tashkil etadi.

To'labandlik sharoitida mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi, mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini ifoda etadi. Siklik ishsizlikning rivojlanishi uning ishsizlikning tabiiy darajasidan ortiq bo'lishiga va o'z navbatida YaMM haqiqiy hajmining YaMMning imkon darajasidan ortda qolishiga olib keladi. Uning o'lchamlari Ouken qonuni asosida hisoblanadi. Ouken qonuniga ko'ra ishsizlikning o'z tabiiy darajasidan 1 % yuqori bo'lishi, YaMMning o'z potensial hajmidan 2-2,5 % ortda qolishiga olib keladi.

Inflyasiya narxlar darajasining o'sishida namoyon bo'ladi. Inflyasiya darajasi, uning rivojlanish vaqti davrlari - inflyasion jarayonning asosiy tavsiflaridir.

Inflyasiya sabablarini aniqlay borib, ayrim iqtisodchilar uni birinchi navbatda ortiqcha talabning paydo bo'lishi bilan bog'lasalar, boshqa bir

iqtisodchilar esa - mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi bilan bog'laydilar.

Odatda, iqtisodiyotda qisqa, o'rta va uzoq muddatli vaqt oraliqlari farqlanadi. Vaqt omili yordamida inflyasiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik tahlil etilganda, qisqa muddatli davrda ishsizlik va inflyasiya o'rtasida teskari bog'liqlik, uzoq muddatli davrda esa to'g'ri bog'liqlik mavjudligi ko'zga tashlanadi. Inflyasiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil etishda Filips egri chizig'idan foydalaniladi.

Iqtisodchilar inflyasiyaning ishlab chiqarishga ta'sirini turlicha baholaydilar. Talab inflyasiyasi tarafdorlari evida bo'ladigan inflyasiya iqtisodiyot o'sish su'ratlarining o'sishini yuzaga chiqaradi deb ta'kidlasalar, xarajatlar inflyasiyasi tarafdorlari, bunga teskari tarzda uning rivojlanishi ishlab chiqarishning qisqarishiga olib keladi deb ta'kidlashadi. Biroq ikkala tomon ham giperinflyasiya iqtisodiyot va moliya tizimini barbod bo'lishiga imkon yaratishini tan oladilar.

Asosiy tushunchalar va terminlar:

- a. iqtisodiy sikl.
- b. Mavsumiy tebranishlar.
- v. Friksion ishsizlik.
- g. Siklik ishsizlik.
- d. Tuzilmaviy ishsizlik.
- e. To'la bandlik.
- j. Ishsizlikning tabiiy darajasi.
- z. Ishsizlik darajasi.
- k. Ouken qonuni.
- l. Inflyasiya.
- m. Deflyasiya.
- n. Talab inflyasiyasi.
- o. Xarajatlar inflyasiyasi.
- 1. Yollanma xodimlarning o'z ish joylarini ixtiyoriy ravishda o'zgartirishlari yoki ularning vaqtincha bo'shatilishlari bilan bog'liq, ishsizlik.
- 2. Mavjud ishchi kuchining 100% dan kam qismini tashkil etuvchi, ishsizlikning friksion va tuzilmaviy shakllarini ko'zda tutuvchi, bandlik.
- 3. Bir necha yil davomida iqtisodiy faollik darajalarining ko'tarilib, pasayib turishi.
- 4. Har bir holatda band bo'lmagan ishchi kuchi ulushi.
- 5. Umumiy narxlar darajasining pasayishi.
- 6. To'la bandlik sharoitida joriy ishsizlik darajasining 1% ga oshishi SMM real hajmining imkon darajasidagi SMM hajmidan 2,5% ga ortda qolishiga teng.
- 7. Umumiy narxlar darajasining o'sishi.
- 8. Siklik ishsizlik mavjud bo'lmagan holatdagi, ishsizlik darajasi.
- 9. Ishlab chiqarishning siklik siquvi tufayli vujudga kelgan ishsizlik.

10. Iqtisodiy faollikning mavsumiy tebranishlari tufayli, iqtisodiy sikllarga bog'liq bo'lmagan holda yuzaga keluvchi, yil davomida iqtisodiy kon'yunkturaning tebranib turishi.
11. Ishchi kuchi kasb malakasining ishlab chiqarish tuzilmasiga mos kelmay qolishi oqibatida vujudga kelgan ishsizlik.
12. YaMM real hajmining o'zgarmas sharoitida ortiqcha talab natijasida, narxlarning o'sishi.
13. Ishlab chiqarish xarajatlari ortishi natijasida, narxlarning o'sishi.

? Testlar:

1. Ouken muvofiq haqiqiy ishsizlik darajasining tabiiy ishsizlik darajasidan ikki foizga ortiqcha bo'lishi, haqiqatdagi YaMM hajmining Real YaMM hajmidan necha foizga ortda qolishini bildiradi:

- a) 2%
- b) 3%
- v) 4%
- g) 5%
- d) 5% dan ortiq.

2. Tushkunlik fazasida davlatning barcha chora tadbirlari ... ni rag'batlantirishga yo'naltiriladi.

3. Moslikni o'rnating:

a. Akselerator.

$$1. V = \frac{I}{Y_{t-1} - Y_{t-2}};$$

$$2. M = \frac{1}{1 - MRS};$$

b. Mul'tiplikator.

$$3. M \times V = P \times Q$$

$$4. M = P \times Q / V$$

4. Quyida sanab o'tilgan kategoriyalardan qaysi biri ish faolligi fazasiga mansub emas?

- a. Inflyasiya:
- b. Resessiya:
- v. Tushkunlik:
- g. Yuksalish:
- d. Jonlanish.

5. Agar nominal daromad 8% ga ohsa, narxlar darajasi 10% ga o'ssa, bu holda real daromad:

- a. 2% ga o'sadi;
- b. 18% ga o'sadi;
- v. 2% ga kamayadi;
- g. 18% ga kamayadi;

d. avvalgidek qoladi.

6. Moslikni o'rnating:

a. iqtisodiy siklning tashqi omillari.

b. iqtisodiy siklning ichki omillari

1. Urush.
2. Siyosiy beqarorlik.
3. Shaxsiy iste'mol.
4. Investisiyalash.
5. Davlatning iqtisodiy siyosati.
6. Texnologiyadagi kuchli o'zgarishlar.

7. Inflyasiya quyidagi holatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

a) faqat YaMM o'sishi bilan;

b) rivojlanish manbalariga bog'liq holda YaMM ning o'sishi yoki qisqarishi bilan;

v) faqat YaMM ning qisqarishi bilan;

g) to'la bandlik sharoitida YaMM ning o'sishi bilan;

d) barcha javoblar noto'g'ri.

8. Keyns nazariyasiga muvofiq iqtisodiy sikl:

a) tashqi omillarga;

b) ichki omillarga;

v) Yalpi talabga ta'sir etuvchi omillarga;

g) Yalpi taklifga ta'sir etuvchi omillarga;

d) investisiyalarga bog'liq.

9. Ketma-ketlikni shakllantiring:

iqtisodiy sikl fazalari quyidagi ketma - ketlikda namoyon bo'ladi:

a. jonlanish;

b. yuksalish;

v. tushkunlik;

g. turg'unlik.

? Mashqlar:

1. Quyidagi sanab o'tilgan jarayonlar iqtisodiy siklning ikki fazasidan qaysi biriga tegishli: Tushkunlik (T) va Yuksalish(Yu).

a) xususiy sektorda investisiyalarning o'sishi.

b) foydaning qisqarishi.

v) soliq tushumlarining o'sishi.

g) ishchi kuchiga talabning oshishi.

d) aksiya kurslarining pasayishi.

e) inflyasiyaning o'sishi.

j) ishsizlik bo'yicha nafaqalarining oshirilishi.

z) foiz stavkalari darajasining pasayishi.

2. Quyida sanab o'tilgan shaxslarning maqomini ularning bandlik va ish kuchiga munosabati nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda aniqlang. Agar ular quyidagicha tarzda tasniflansa:

- Bandlar (B).

- Ishsizlar (I).
- Ishchi kuchi tarkibiga kiritilmaydigan (I,t.k.).
- a) O'z xohishi bilan ishdan bo'shatilgan xodim.
- b) to'liqsiz ish kuni tartibiga o'tkazilgan xodim.
- v) Sog'ligi yomonligi tufayli, boshqa ishlolmaydigan o'qituvchi.
- g) Uzoq muddat davomida ish topa olmagan va shuning uchun ish izlashni to'xtatgan, ishdan bo'shatilgan xodim.
- d) O'quv yurtining kundo'zgi bo'limida tahsil oluvchi, talaba.
- e) O'quv yurtining kechki bo'limida tahsil oluvchi, avtomexanik.
- j) O'z uy yumushlari va oilasi bilan band uy bekasi.
- z) Vaqtning ma'lum bir qismida kutubxonachi sifatida ishlovchi, uy bekasi.

3. Quyidagi jadvalda tahlil etilayotgan davrning birinchi va beshinchi yili uchun bandlik va mehnat resurslariga oid ma'lumotlar berilgan. (ming kishi hisobida).

	Birinchi yil.	Beshinchi yil.
Ishchi kuchi	84889	95453
Bandlar	80796	87524
Ishsizlar	-	-
Ishsizlik darajasi(%)	-	-

a) Tahlil etilayotgan davrning birinchi va beshinchi yillari uchun ishsizlar soni va ishsizlik darajasini hisoblang.

b) Bir vaqtning o'zida bandlik va ishsizlik o'sishini qanday izohlash mumkin?

v) Tahlil etilayotgan davrning beshinchi yilida to'la bandlik vujudga kelgan deb ayta olish mumkinmi?

4. Quyidagi ma'lumotlar mavjud:

Bandlar soni- 90 mln kishi.

Ishsizlar soni - 10 mln kishi.

a) Ishsizlik darajasini hisoblang.

b) Bir oydan so'ng, band bo'lgan 90 mln kishidan 0,5 mln kishi ishdan bo'shatildi, rasman ishsiz deb e'tirof etilganlardan 1 mln kishi ish izlashni to'xtatishdi. Ushbular asosida quyidagilarni aniqlang: 1) bandlar soni: 2) ishsizlar soni, 3) ishsizlik darajasi.

5. Agar, joriy yilda narxlar indeksi 121, o'tgan yilda esa 110 ga teng bo'lgan bo'lsa, joriy yilda inflyasiya darajasi nimaga teng bo'ladi? "Etmishga bo'lish" qoidasi nimani anglatadi? Agar, inflyasiyaning yillik darajasi a) 5 %, b) 10 %, v) 15 % bo'lsa, narxlar ikki marotaba o'sishi uchun necha yil talab etiladi?

6. Faraz qilaylik, ishsizlikning tabiiy darajasi 5 % ni tashkil etishi lozim bo'lgan holatda, amalda ishsizlik darajasi 9% ni tashkil etdi. Agar, ushbu yilda nominal YaMM qiymati 500 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, ortiqcha ishsizlik tufayli, qancha mahsulot yo'qotilgan. Oukun qonuni asosida YaMMning o'z potentsial hajmidan ortda qolishini foizlarda hisoblang?

? To'g'ri - noto'g'ri:


1. Agar, YaMM ning haqiqatdagi hajmi imkon darajasidagi YaMM ga teng bo'lsa, u holda iqtisodiyot to'labandlik sharoitida rivojlanmoqda deb, xulosa qilish mumkin.
2. Ishsizlik darajasi umumiy bandlar va ishsizlar sonini taqqoslash orqali aniqlanadi.
3. Inflyasiya barcha aholi qatlamlarining real daromadlari pasayishiga olib keladi.
4. Inflyasiya - umumiy ishlab chiqarish hajmining o'sishidir.
5. Ishchi kuchi tarkibiga faol ish izlayotgan ishsizlarni ham kiritish lozim.
6. Investisiyalar - iqtisodiy sikl doirasida yalpi xarajatlarning eng beqaror tashkil etuvchisidir.
7. Boshqa mamlakatlarning YaMMi o'sgan chog'da, mamlakat eks-porti ham o'sadi.
8. Iqtisodiy sikl - iqtisodiy taraqqiyot jarayonida yuksalish va pasayishlarning takrorlanib turishidir.
9. Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik darajasi amalda 0 % ga teng.
10. Har qanday vaziyatda ham davlat iqtisodiyotga aralashmagani ma'qul hisoblanadi.


? Aqliy trening:

Bir paytning o'zida nominal daromadning o'sishi va real daromadning qisqarishini qanday izohlash mumkin? Ishsizlik va inflyasiyaning iqtisodiyotga ta'siri qanday? Agar, sizda tanlash imkoni bo'lsa quyidagilardan qaysi birini tanlagan bo'lar edingiz va nima uchun?:

- a) yillik inflyasiya darajasi 6 % bo'lgan holatda, iqtisodiyotdagi to'la bandlik;
- b) narxlar barqaror bo'lgan sharoitda ishsizlik darajasi 8 % ga teng bo'lgan holat.

? Krossvord: BROKER





Eniga: 2. Er egalarning erlarini foydalanishga berishdan olinadigan pul mablag'lar. 5. Kim oshdi savdosi. 7. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi munosabat. 9. Tovar yoki xizmatlar to'g'risidagi hisobot. 12. Bozor sub'ekting ish uslubi. 16. Qimmatboho qog'ozlarni muomalaga chiqaruvchi muassasa. 20. Qimmatbaho qog'oz turi. 21. Taftish. 22. Shaxslarning ixtiyoriy birlashmasi. 24. Jismoniy va yuridik shaxs nomidan ish yurituvchi. 25. Ish boshqaruvchi. 27. Pul mablag'larini fondini tashkil etish va tasarruf etish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar. 29. Yozma guvohnoma. 31. Tovar - pul munosabatlari tizimi. 32. Germaniyaning sobiq pul birligi. 34. Guruh, hay'at. 37. Xarajatlarning daromaddan ortgan qismi. 38. Erkin muomaladagi pul tizimi. 39. Yozma taklif. 40. Soliq turi. 41. Qonun yoki shartnomani buzganligi uchun to'lanadigan pul. 43. Plastik kartochkalar bilan ishlaydigan avtomat. 46. Kredit berish shartlaridan biri. 49. Ishsizlik turi. 50. Vositachi. 51. Kompleks xizmat ko'rsatish.

Bo'yiga: 1. Korxona moliyaviy holatining tekshirilishi. 3. Tovar qiymatining puldagi ifodasi. 4. Tovar va xizmatlarning bir - biriga to'g'ridan - to'g'ri, ya'ni pulsiz almashtirilishi. 6. O'ralmagan holdagi tovarning sof og'irligi. 8. Tovarida gavalangan ijtimoiy mehnat. 10. Ittifoq, birlashma. 11. Aukcion, ko'rgazma to'g'risidagi e'lon. 12. Xorijiy tovarlarni keltirish. 13. Tovarni o'ta past narxda sotish. 14. Savdo chaqirig'i. 15. Kelajakda ihlatiladigan sarmoya. 17. Talabning aksi. 18. Foyda olish maqsadidagi faoliyat. 19. Mijoz. 23. Majburiy to'lov. 24. Eskirishni hisoblash. 26. Mulkchilik turi. 28. Tovar narhining tez sur'atda o'sishi. 29. Katta savdo do'koni. 30. Neft mahsulotlarini tashishga mo'ljallangan katta kema. 33. SHartnoma. 35. Ijara turi. 36. Xalqaro savdo shartnomasi. 39. Tovar joylanadigan buyum. 42. Tovar yoki xizmat haqining bir qismini oldindan to'lash, bo'nak. 44. Neft eksport qiluvchi mamlakatlar birlashmasi. 45. Aksionerlik jamiyatiga aksiya uchun to'lov sifatida keladigan pul. 47. Hisob yuritish shakli. 48. Rasmiy hujjat, protokol.



Byudjet kamomadi va davlat qarzi

Har qanday zamonaviy davlatning iqtisodiy tuzilmasini o'rganish moliyaviy munosabatlar va ularni tartibga soluvchi institutlarning umumiylikni aks ettiruvchi moliyaviy tizim tahlilisiz mumkin emas. Moliyaviy mexanizm orqali davlat

o'zining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalaridagi vazifalarini amalga oshirish uchun pul mablag'lari fondlarini tashkil etadi va ulardan foydalanadi.

Davlat moliyasi tizimida markaziy o'rinni davlat byudjeti egal-laydi.

Davlat byudjeti mamlakat hukumati tasarrufida bo'lgan markaz-lashtirilgan pul mablag'lari fondlarini ifoda etadi.

Byudjet mablag'lari:

- yalpi talabni oshirish maqsadida davlat xaridlari;
- transfert to'lovlari to'lash;
- ijtimoiy ne'matlar ishlab chiqarish;
- ilmiy texnik tadqiqotlar o'tkazish;
- harbiy xarajatlarni moliyalashtirish;
- asosiy kapitalga investisiya qilish uchun sarflanadi.

Daromadlar va xarajatlarni nisbatidan kelib chiqqan holda, byudjet profisit yoki defisitga ega bo'lishi mumkin. Odatda, tuzilmaviy va siklik byudjet kamomadi farqlanadi.

Byudjet kamomadi davlat xarajatlarining daromadlaridan ortiq bo'lishi okibatida vujudga keladi. Bu esa davlat qarzi - o'tgan yillar davomida to'planib qolgan byudjet kamomadlari umumiy summasining o'sishiga olib keladi. Davlat qarzlarning o'sishi natijasida iste'mol va jamg'armalar hajmi qisqaradi, foiz to'lovlari keskin o'sib boradi.

Davlat byudjeti kamomadini qoplash maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- qo'shimcha pul chiqarish (pul emissiyasi);
- ichki qarzni oshirish (davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish);
- tashqi qarzni ko'paytirish (xalqaro kredit).

Byudjet kamomadi real milliy mahsulotning o'sishi, soliq stavkalarining pasaytirilishi jarayonida qisqarib boradi.

Byudjet daromadlarining shakllanishida soliqlar alohida o'rin tutadi. Soliqlar- bu, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning davlatga majburiy to'lovlarini ifoda etadi. Soliqlar odatda, to'g'ri va egri soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlar har qanday daromad manbaidan undiriluvchi soliqlar bo'lib hisoblanadi, masalan jismoniy shaxslarning daromad solig'i, foyda solig'i. bugungi kunda respublikamiz byudjeti daromadlari tarkibida egri soliqlarning ulushi etarlicha kattadir. Egri soliqlar tovar yoki xizmat narxiga qo'shilib, uning yakuniy to'lovchisi iste'molchi bo'lib hisoblanadi. Egri soliqlar tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, oborot solig'i, aksiz solig'i, bojxona poshlinalari kiradi.

Davlatning soliqlar va byudjet borasidagi siyosati odatda, fiskal siyosat deb yuritiladi. Fiskal siyosatni amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad, inflyasiyani jilovlash, iqtisodiy tebranishlarni yumshatishdir.

Byudjet jarayoni davlat daromadlari va xarajatlarini tenglashtirish (muvozanatlash) ni taqozo etadi. Biroq, ayni paytda deyarli barcha mamlakatlarda davlat xarajatlarining sezilarli tarzda davlat daromadlaridan ortiq bo'lishi kuzatiladi. Bu esa byudjet kamomadining tez sur'atlarda o'sishiga olib keladi. Buning sabablarini davlat zimmasidagi vazifalarning ko'payib borishi, davlat

boshqaruv xodimlari sonining o'sishi, harbiy xarajatlarning ortib borishi kabi omillar bilan izohlash mumkin.

? Asosiy tushunchalar va terminlar:

- a) Byudjet kamomadi.
- b) Funktsional moliyalashtirish.
- v) Davlat qarzi.
- g) Tashqi qarz.
- d) Milliy valyutaning xalqaro qadr-qimmati.
 - 1. Milliy valyutaning xorijiy valyutada ifodalangan narxi.
 - 2. Ma'lum yilda davlat xarajatlarining uning daromadlaridan ortiq bo'lishi.
 - 3. Davlatning davlat qimmatli qog'ozlar egalariga, o'tgan yil-lardagi byudjet kamomadidan byudjet ortiqchaligining ayirmasiga teng bo'lgan summadagi umumiy qarzi hajmi.
 - 4. Davlatning xorijiy fuqarolar, firmalar va tashkilotlarga bo'lgan qarzi.
 - 5. Fiskal siyosatdan, uning davlat qarzigiga ta'siridan qat'iy nazar, to'labandlik sharoitida sof inflyasiyadan holi milliy mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlashda foydalanish.

? To'g'ri - noto'g'ri:

- 1. Milliy valyutaning xalqaro qadrining o'sishi, mamlakatda ishlab chiqarish va bandlikning kengayishiga olib keladi.
- 2. Odatda, davlat qarzining tarixiy sabablari, urushlar va iqtisodiy tushkunliklar hisoblanadi.
- 3. Agar, davlat daromadlari o'ssa, davlat byudjeti kamomadi vujudga keladi.
- 4. Inflyasiya nominal davlat qarzining real qiymatini oshiradi.
- 5. Siquv samarasi investisiyalarga talab egri chizig'ini chapga siljitadi.
- 6. Ichki qarz davlat daromadlarining qayta taqsimlanishiga olib keladi.
- 7. Yillik byudjet kamomadi davlat daromadlaridan davlat xarajatlarining ayirmasiga teng.

? Testlar:

1. Faol byudjet kamomadi davlat xarajatlarining ... va soliqlarning... orqali vujudga keladi.

2. Siquv samarasiga muvofiq:

- a) davlat xarajatlarining o'sishi, xususiylarining kamayishiga olib keladi;
- b) import mamlakat ichida tovar ishlab chiqarish bilan almash-tiriladi;
- v) xususiylarining o'sishi, davlat xarajatlarining qisqarishiga olib keladi;
- g) tovar va xizmatlarning o'sishi bilan bir qatorda, investisiyalar hajmi qisqaradi;
- d) iqtisodiyotda daromadlar mul'tiplikativ samaraga uchraydi.

3. Soliqqa tortish me'yori bo'lib, ... hisoblanadi.

4. Davlat byudjeti o'zida ... pul mablag'lari fondlarini ifoda etadi.

5. Byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirishning asosiy manbalari bo'lib:

- a) huquqiy shaxslarning daromadlari;
- b) jismoniy shaxslarning daromadlari;
- v) ish haqi fondi;
- g) tovar va xizmatlar sotilishi aylanmasi;
- d) kapital iste'moli ajratmalari;
- e) davlat xarajatlari hisoblanadi.

1. Moslikni o'rnating:

- | | |
|----------------------|----------------------|
| a) To'g'ri soliqlar. | 1. aksizlar. |
| | 2. fiskal soliqlar. |
| | 3. bojlar. |
| b) Egri soliqlar. | 4. daromad solig'i. |
| | 5. mol mulk solig'i. |

? Mashqlar:

1. To'labandlik sharoitida YaMM 20 mlrd. dollarni tashkil etadi. YaMM ning haqiqiy hajmi esa 16 mlrd. dollarga teng. Soliqlar summasi YaMM qiymatining 10% ini tashkil etadi. Tovlar va xizmatlar uchun davlat xarajatlari 1,8 mlrd. dollarga teng.

a) Davlat byudjeti taqchillikka yoki ortiqchalikka ega ekanligini va uning o'lchamlarini aniqlang?

b) To'la bandlikka erishilgan chog'da davlat byudjeti qoldig'i qanday o'zgarishini aniqlang?

2. Hukumat xorijiy banklardan 8% yillik stavka bo'yicha 1 mlrd. dollar hajmida qarz oldi. Bu mablag'lar keyingi yillar mobay-nida mamlakat milliy mahsulotini yiliga 300 mln dollarga ko'paytirish imkonini beruvchi loyihalarga investisiyalanadi.

a) Bu qarz mamlakat qarzining o'sishiga olib keladimi, olib kelsa qanday o'lchamlarda?

b) Mamlakat fuqarolari zimmasidagi moliyaviy yuk o'sadimi?

3. Hukumat bir yil muddatga 4% stavka bo'yicha 10000 dollar sum-masida qarz olgan.

a) Yil so'ngida hukumat qanday summada qarzni to'lashi lozim?

b) Agar yillik inflyasiya sur'atlari 3%ni tashkil etsa, bu qarz summasi nominal qarz summasiga teng bo'ladimi?

v) Inflyasiya mavjud bo'lmagan holatda, qarz summasi va foiz qiymati nimaga teng bo'ladi?

g) Agar yillik inflyasiya sur'atlari 3%ni tashkil etsa, u holda inflyasiyani hisobga olgan holdagi qarz summasi va foiz qiymati nimga teng bo'ladi?

4. quyidagi keltirilgan byudjet daromadlari va xarajatlari tuzilmasini tahlil qiling.

Daromadlar	umumiy xarajatlar va daromadlar %hisobida
QQS	27,1
Korxona va tashkilotlar foydasiga soliq	40,3
Jismoniy shaxslardan daromad solig'i	10,6
Tashqi iqtisodiy faoliyatdan daromad	5,6
Aksizlar	4,3
Xarajatlar	
Halk xo'jaligi	30,0
Ijtimoiy va madaniy tadbirlarni moliyalashtirish	26,6
Mudofaa	13,4
Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq sarflar	5,1
Huquq tartibot muassasalariga xarajatlar	4,9

Bu tuzilmada qaysi byudjet tuzilmasi tasvirlanganligini aniqlang:

- a) Respublika byudjeti;
- b) Federal byudjet;
- v) Mahalliy byudjet.

O'z nuqtai nazarinigizni asoslang.

5. Iqtisodiyot modeli quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi:

- 1) $S_d = 1000 + 0,9 Y_d$
- 2) $G = 600$
- 3) $I_d = 390$
- 4) $T = 400$
- 5) $Y_d = GNP - T$
- 6) $V = T - G$
- 7) $X - M = 0$

Bu erda: C_d - rejalashtirilgan iste'mol xarajatlari, G - davlat xarajatlari; I_d - rejalashtirilgan investisiyalar; T - soliqlar; Y_d - tasarrufdagi daromad; V - davlat byudjeti kamomadi yoki ortiqchaligi; X - eksport; M - import; GNP - YaMM.

- a) GNP ni hisoblang.
- b) Davlat xarajatlarini mul'tiplikatorini hisoblang.
- v) muvozanatli GNP sharoitida jamg'armalar hajmini hisoblang.
- g) To'la bandlik sharoitida jamg'armalar hajmini hisoblang.
- d) Soliqlarning bir birlikka o'sishi, GNP qiymatiga qanday ta'sir etishini hisoblang.

? Aqliy trening:

1. Korxona jamg'armalarini rag'batlantiruvchi, soliq siyosati, albatta yalpi investisiyalarning o'sishiga olib keladi. - deb yozgan edi amerikalik mashhur iqtisodchi M. Feldstayn.

Iqtisodchi qarashlarini sharhlang. Siz ushbu fikrga qo'shilasizmi?

2. Byudjet taqchilligi holatida moliyachilar xazinani to'ldirishning tez va oson uch yulini tavsiya etadilar: qo'shimcha pul belgilari emissiyasi; tashqi yoki ichki qarzni ko'paytirish; soliqqa tortish stavkalarini oshirish. Har bir yo'lning iqtisodiyot uchun samaradorligi va istiqbolini baholang, bunda masalaning ijtimoiy jihatlarini hisobga oling.

2. Oila byudjetini rejalashtirish shart deb, o'ylaysizmi? Oilada xarajatlar va daromadlar (kirim - chiqim) daftarini yuritish kerakmi?

? Iqtisodiy o'yin: Davlat moliyasi

O'yinning maqsadi: davlat sektorida bozor yoki davlat ma'muriy mexanizmi yordamida resurslarni taqsimlash bo'yicha echimlar qabul qilinishi jarayoni mohiyatini chuqurroq anglab etishdir.

Topshiriq: o'yin ishtirokchilari quyida ro'yxati keltirib o'tilgan davlat loyihalarining muhimlik darajasidan kelib chiqqan holda, loyihalarni ro'yobga chiqarish uchun qayta ro'yxat tuzib chiqishlari lozim.

O'yin sharti: auditoriya o'yin davomida bir necha kichik guruhlariga bo'lingan holda ishtirok etadi. har bir kichik guruh 10 mln AQSH dollari miqdorida mablag'ga ega. Ushbu mablag'lar guruh fikricha eng ma'qul bo'lgan loyihaga sarflanishi lozim. Faqatgina naqd bo'lgan mablag', ya'ni 10 mln AQSh dollari loyihlarni amalga oshirish uchun sarflanishi lozim. Loyihalarni amalga oshirish natijasida, keyingi yillarda olinishi rejalashtirilgan mablag'lar ushbu yilda sarflanishi mumkin emas. O'yin ishtirokchilari loyihalarni moliyalashtirish uchun hamma mablag'ni o'z xohishlaridan kelib chiqqan holda sarflamasliklari ham mumkin, biroq ular mavjud byudjet bilan cheklanishga majburlar, ya'ni 10 mln AQSh dollaridan ortiqcha mablag' sarf qila olmaydilar.


Loyihalar ro'yxati:

1. **Ekologik ofat:** zaharli neft dog'lari mahalliy baliqchilik xo'jaliklariga katta zarar keltirmoqda, agar tezkor chora tadbirlar ko'rilmasa baliqchilik xo'jaliklarining ekologik ofat natijasidagi zararlari bir necha million dollarni tashkil etishi mumkin. Ustiga ustak, tozalash tadbirlarini kechiktirish, atrof muhit holatining yanada buzilishiga va loyiha qiymatining oshishiga olib keladi. Loyihaning joriy qiymati 2 million AQSH dollarini tashkil etadi.

2. **Huquqni muhofaza qilish:** hududda jinoyatchilikning o'sishi natijasida, tadbirkorlar ushbu hududdan o'z korxonalarini boshqa hududlarga ko'chirib olib ketmoqdalar. Bu esa o'z navbatida hudud byudjetida soliq to'lovlarining keskin qisqarishiga va ishsizlikning o'sishiga olib kelmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyatchilikka qarshi

keskin kurashish, norasmiy faoliyatning o'sishiga chek qo'yadi. Ichki ishlar vaziri qamoqxonlar jinoyatchilar bilan to'laligini ta'kidlab, yangi qamoqxona qurish va qo'shimcha 80 ta ofiserni ishga yollash taklifini bermoqda. Loyihani amalga oshirishning joriy qiymati 3 million AQSh dollarini tashkil etadi.

3. **Sog'liqni saqlash:** toza ichimlik suvining etishmasligi, inson salomatligi bilan bog'liq o'ta jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ba'zida hudud fuqarolari o'rtasida bevaqt o'lim holatlari kuzatilmoqda. Ekologlar va inson salomatligi bilan shug'ullanuvchi olimlar fuqarolarning salomatligini yaxshi-lashda eng maqbul yo'l toza ichimlik suvi manbalarini izlab topishdir, deb hisoblamodalar. Ichimlik suvini tozalash stansiyasini barpo etish byudjetga 2,5 million AQSh dollariga tushadi. Agar ushbu tadbir amalga oshirilmasa, ahvol yanada yomonlashishi va hududda katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.
4. **Ta'lim:** aholishunoslarning hisob- kitoblariga ko'ra yaqin besh yil ichida boshlang'ich va o'rta maktabga qatnovchi bolalar soni ikki marotaba o'sadi. Aholi savodxonligi bo'yicha ahvol talab darajasida bo'lishi uchun hududda uchta yangi maktab qurilishi va qo'shimcha 300 ta o'qituvchi ishga qabul qilinishi lozim. Loyiha bir necha yil mobaynida amalga oshirilib, dastlabki yilda loyihani amalga oshirish uchun 3,5 million AQSh dollari sarflanadi.
5. **Avtomobil va temir yo'llarning** uzoq vaqt ta'mirlan-maganligi va hududda qishning qattiq kelishi tufayli, yo'llardan tushayotgan tijorat foydasi keskin kamayib ketgan. Rejalashtirish bo'yicha hududiy agentlik mutaxassislari ma'lum qilishicha, agar, eski yo'llar ta'mirlansa, tijorat faoliyatining o'sishi, dastlabki yilning o'zidayoq hududga 15 million AQSh dollari miqdorida foyda keltirishi mumkin. Loyihani amalga oshirishning kutilayotgan qiymati 3,8 million AQSh dollarini tashkil etadi.



Eniga: 1. Kirim. 3. Xissadorlik - tijorat banklaridan biri. 6. Bozorda yagona xaridor bo'ladigan xolat. 10. Jamg'arma pul mablag'lari. 11. Davlat tomonidan beriladigan yordam. 12. Monopolistik birlashma turi. 14. CHaqa. 15. Korporasiya turi. 17. Kirim. 19. Ishga yaroqli shaxsning band bo'lmasligi. 20. Iqtisodiy faoliyatning so'ngi bosqichi. 22. Maxsus ruxsatnoma. 23. Qozoqiston pul birligi. 24. Plastik karta bilan ishlaydigan avtomat. 26. Kelishuv, kontrakt. 27. Samolyot turi. 28. Ish yurituvchi, boshqaruvchi. 30. Tayyor mahsulot. 31. Shveysariyadiga eng katta moliyaviy markazlardan biri. 33. Moliyaviy jazo turi. 34. Bir necha firmalarning nazorat paketiga ega kompaniya. 37. Maqsadli berilgan qarz. 38. Hissadorlik jamiyati shakli. 40. Ma'suliyati cheklangan jamiyat. 42. Ulush. 43. Mahsulotni mahsulotga to'g'ridan-to'g'ri almashtirish, ayirboshlash. 45. Qimmatli qog'ozlarning kapitalga aylantirilishi. 47. Iqtisodiy

taraqqiyotdagi tebranishlar. 48. Poytaxtimizdagi fond birjasining nomi. 49. Daromadlarni qayta baholash. 50. Bozorshunoslik.

Bo'yiga: 1. Tashqi qarzni to'lashdan bosh tortish. 2. Moliyaviy muassasa. 3. Qadimgi og'irlik o'lchov birligi. 4. Xorijiy yuklarni mamlakat xududidan olib o'tilishi. 5. O'zaro uyg'unlashgan sanoat ishlab chiqarish korxonasi. 7. Qimmatbaho metal. 8. Fransiya avtosi. 9. Yordamchi quyi tuzilmalar. 13. Mualliflik huquqini buzgan shaxs. 16. AQShdagi elektron birja. 18. Loto o'yini. 19. Hisob - kitob turi. 21. Italiya pul birligi. 23. Mahsulotni yaratishga sarflangan xarajatlar yig'indisi. 25. Iqtisodiy ta'limotlardagi yo'nalishlardan biri. 26. Jahonning rivojlangan moliyaviy markazlaridan biri. 28. O'zbek avtosi. 29. Foyda olishga qaratilgan faoliyat. 32. Iqtisodiy islohotlarning yo'nalishlaridan biri. 35. Buxgalteriyada tovar - material boyliklarni hisobini yuritish shakli. 36. Mahsulot tannarxi hisobi. 39. Korxona turi. 40. 1000 sm². 41. Inflyasiyaga teskari bo'lgan jarayon. 43. Tovarning o'ramasi bilan og'irligi. 44. Aksiyadan keladigan daromad. 46. Erdan foydalanishdan olinadigan iqtisodiy foyda.

Jahon xo'jaligi. Xalqaro savdo va savdo siyosati



Tarix, jahon xo'jaligi shakllanishining to'rt bosqichini biladi. Jahon xo'jaligining ilk bosqichi ishlab chiqarishning to'industrial davrida vujudga keldi. Bu davrda alohidalashgan xududlarda yashovchi qabilalar, urug'lar o'rtasida savdo munosabatlari amalga oshirilgan. Bu savdo munosabatlarining ilk ob'ektlari bo'lib, qo'shni qabilalar, oilalarda vujudga kelgan ortiqcha don, go'sht va boshqalar hisoblan-gan. Savdogarlar qatlamining vujudga kelishi bilan xalqaro savdo rivojlana boshladi.

Iqtisodiy muloqotning keyingi bosqichi ishlab chiqarishning industrial davrida vujudga kelgan. Rivojlangan bozor munosabatlari va yirik mashinalashgan ishlab chiqarishning vujudga kelishi natijasida tashqi savdo milliy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib qoldi.

Jahon iqtisodiyoti shakllanishining uchinchi bosqichi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu bosqich transmilliy korporasiyalarning vujudga kelishi bilan tavsiflidir.

O'tgan asrimizning 60 yillarida, ko'plab mustamlaka davlatlar siyosiy bog'liqlikdan holi bo'lganlaridan so'ng, jahon xo'jaligi rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi.

Jahon xo'jaligi - jahon mamlakatlarining iqtisodiy - ijtimoiy, texnika va texnologik hamkorlik yuzasidan xo'jalik aloqalari va munosabatlari tizimidir.

Hozirgi kunda, jahon xo'jaligi aloqalari quyidagi shakllarning umumiylikini ifoda etadi:

- tashqi savdo;
- ishlab chiqarish kooperatsiyasi;
- ilmiy texnik ma'lumotlar va texnologik ishlanmalarni ayirbosh-lash;

- ishchi kuchining bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chishi;
- xalqaro kredit va xorijiy investisiyalar;
- davlatlarning o'zaro valyuta munosabatlari.

Jahon xo'jaligining globallashuvi quyidagilarda ko'rinmoqda:

- mamlakatlar o'rtasida domiy tarzda o'zaro hamkorlik qilishga qiziqishning kuchayib borishi;
- ko'pchilik mamlakatlarning bozor yo'lida rivojlanayotganligi tufayli, jahon iqtisodiy makonining shakllanishi;
- xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi;
- jahon miqyosida infratuzilmaning yaratilishi (transport tizimi, kommunikasiya tarmoqlari...)

Bugungi kunda respublikamiz jahon xo'jaligiga tobora chuqurroq integrasiyalashib bormoqda. Bunda iqtisodiyot tuzilmasini tubdan o'zgartirish, jahon andozalariga mos ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yish talab etiladi. Mamlakatimiz rahbari bu haqda:

"Islohotlarning hozirgi bosqichida asosiy vazifamiz, iqtisodiyotimiz strukturasini tubdan o'zgartirish, xom ashyo etkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish, uning sifatini va raqobatga bardoshlilikini jahon bozori talablari darajasiga etkazishdan iborat. Bunda tarkibiy o'zgarishlarda respublika uchun eng asosiy hisoblangan tarmoqlarni jumladan, yoqilg'I - energetika va g'alla komplekslarini rivojlantirishda iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash. Shuningdek, bu o'zgarishlar respublika iqtisodiyoti uchun ustuvor hisoblangan, boy tabiiy, mineral xom - ashyo, mehnat resurslariga asoslangan hamda istiqbolda xalqaro va davlatlararo mehnat taqsimotida, jahon bozorida O'zbekistonning mustahkam o'rin egallashini kafolatlovchi ishlab chiqarishlarni ildam sur'atlar bilan o'stirishga qaratilishi lozim. Jahon talablari darajasidagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, ularning raqobatga bardoshligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun korxonalarni zamonaviy ilg'or texnologiya, eng yangi uskunlar, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalar uchun mo'ljallangan ixcham uskunalar bilan jihozlash, ichki bozorni to'ldirish uchun kerakli mahsulotni ishlab chiqaradigan kichik, ixcham texnologiyalarning konsepsiyasini va milliy dasturini ishlab chiqish zarurligi g'oyasi ilgari suriladi. Bunday dasturning ishlab chiqilishi va amalga oshirila boshlanishi - iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichining ustivor vazifasidir"- deb ta'kidlaydi. (I. A. Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari" T.: "O'zbekiston" 1998.333-334 b.)

Xalqaro savdo nazariyasi XIX asrlar boshida David Rikardo tomonidan shakllantirilgan taqqoslanma avfzalliklar tamoyiliga asoslanadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, taqqoslanma avfzallik tamoyilidan foydalanishga asoslangan erkin savdo va xalqaro ixtisoslashuv natijasida jami tovar ishlab chiqarish o'sadi, mamlakatlar esa ishlab chiqarish imkoniyatlaridan ortiq bo'lgan ichki iste'mol darajasiga erishadilar.

Ochiq milliy iqtisodiyot jahon xo'jaligi bilan savdo va moliyaiviy munosabatlar orqali o'zaro manfaatli aloqalarga kirishadi. Tashqi savdo eksport va import qiluvchilarning o'zaro harakatini va eksport qiluvchilar o'rtasida raqobatni

ta'min etuvchi jahon bozorlarining mavjud bo'lishini taqozo etadi. amaliyotda tashqi savdo siyosatining ikki asosiy tipi farqlanadi:

- **Milliy xo'jalikni himoyalovchi, proteksionizm siyosati.** Importni boj to'lovlari, miqdor va sifat cheklovlari va ta'qiqlari orqali cheklaydi. Import tovarlari narxining o'sishi, norasmiy savdo operatsiyalari ulushining ortishi, savdo sheriklarining eksport hajmiga ta'sir etuvchi javob ta'sirlari proteksionizm siyosatining oqibatlari bo'lib hisoblanadi.
- **Erkin savdo siyosati.** Tovarlar yuqori raqobatbardosh bo'lgan mamlakatlar tomonidan eksport va import hajmini kengaytirish maqsadida amalga oshiriladi. Odatda har bir davlat ikki yoqlama tavsifga ega bo'lgan tashqi savdo siyosatini amalga oshiradi. Tashqi savdo operatsiyalari hajmi odatda: natural (eksport va import qilinuvchi tovarlar turi va miqdori) va qiymat ifodasida (nafaqat tovarlar miqdori balki, narx-larning o'zgarishi) o'lchanadi. Tashqi savdoning natijasi bo'lib, eksport va import o'rtasidagi farqni ifoda etuvchi tashqi savdo balansi qoldig'i hisoblanadi. Agar tashqi savdo ijobiy natijaga ega bo'lsa, savdo balansi aktiv qoldiqqa ega bo'ladi.

Eksportning o'sishi quyidagi ijobiy natijalarni ta'min etadi:

- **ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi o'sadi;**
- **ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari bartaraf etiladi;**
- **xorijiy valyuta tushumlari o'sadi.**

Bugungi kunda jahon bozori tuzilmasi o'zgarishida quyidagilar yaqqol ko'zga tashlanmoqda:

- **xom ashyo tovarlari qisqarishi va tayyor mahsulotlar ulushining ortishi;**
- **yuqori texnologiyali tovarlar ulushining ortishi.**

Mamlakatning tashqi savdo faoliyati to'lov balansi ko'rinishida hisobga olinadi. To'lov balansi buxgalteriya hisoblari shaklida tuzilib, ma'lum vaqt mobaynida amalga oshirilgan tashqi savdo operatsiyalari to'g'risida ma'lumot beradi.

To'lov balansi quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

- **savdo balansi;**
- **xizmatlar balansi;**
- **o'tkazmalar balansi;**
- **kapital harakati balansi.**

? Asosiy tushuncha va terminlar:

- a. Eksport.
- b. Import.
- v. Mutloq ustunlik.
- g. Taqqoslanma afzallik.
- d. Savdo imkoniyatlari chizig'i.
- e. Proteksionizm.
- j. Fritredrizm.
- z. Erkin savdo.
- i. Xalqaro mehnat taqsimoti.

k. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati.

l. Milliy boylik.

1. Alohida mamlakatlar, korxonalar va tashkilotlarning jahon miqyosida tovar va xizmatlar yaratishga ishlab chiqarish va hududiy jihatdan ixtisoslashuvi.
2. Mamlakatning tovar va xizmatlarni, boshqa mamlakatlar (savdo sheriklari)ga nisbatan kam xarajatlarda ishlab chiqara olish qobiliyati.
3. Mamlakatning biror bir mahsulotga ixtisoslashuvi va uni boshqa bir mahsulot olish uchun ayirboshlashdagi tanlov variantlarni ko'rsatadi.
4. Erkin savdo yuliga to'siqlar quyish.
5. Mamlakatning boshqa sheriklariga nisbatan, tovar va xizmatlarni nisbatan past muqobil xarajatlar bilan ishlab chiqara olish qobiliyati.
6. Savdo yo'lidagi g'ovlarni bartaraf etishga qaratilgan siyosat.
7. Taqqoslanma avfzallik tamoyiliga asoslangan va davlatning barcha aralashuvlarini istisno etuvchi xalqaro ayirboshlash jarayoni.
8. Mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari darajasi.
9. Mamlakatda yaratilgan va jamg'arilgan moddiy va ma'naviy ne'matlar yig'indisi.
10. Bir mamlakatning boshqa mamlakat korxonalari va fuqaro-lariga tovar va xizmatlarni sotishi.
11. Boshqa mamlakatdan tovar va xizmatlarning sotib olinishi.

? To'g'ri - noto'g'ri:

1. GATT - bu "Umumiy bozor" tarkibiga kiruvchi, Evropa mamlakatlarini birlashtiruvchi, xalqaro tashkilot.
2. Importni cheklash, samarasiz tarmoqlarning saqlanib qolishiga olib keladi va samarali ishlab chiqarishlar o'sishiga to'sqinlik qiladi.
3. Savdo shartlari - eksport narxlarining import narxlariga nisbatidir.
4. Xorijiy tovarlarni import qilishni cheklash nuqtai nazaridan import kvotalari, bojlarga nisbatan samaraliroqdir.
5. Insoniy va moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik borasidagi xalqaro tafovutlar - ixtisoslashuv va savdo uchun muhim asosdir.
6. Bojxona bojlarining joriy etilishi mamlakatda ichki iste'molni rag'batlantiradi.
7. Mamlakatning oltin narxini pasaytirishi oqibatida, uning valyutasi qadrsizlanadi.
8. Jahon bozorida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun, har bir mamlakat o'zining tashqi savdo infratuzilmasiga ega bo'lishi lozim.
9. To'lov balansi - bu mamlakat tomonidan xorijiy davlatlarga to'langan pul to'lovlari oqimi.
10. Milliy xo'jalikning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda eksportning ahamiyati yo'q.
11. To'lov balansining passiv qoldig'i milliy valyuta kursining pasayishiga olib keladi.
12. Oziq-ovqat muammosi jahon hamjamiyati uchun nisbiy tavsifga ega.

? Testlar:

1. Savdo va to'lov balansining aktiv qoldig'i milliy valyuta kursining ... ta'min etadi.

2. Moslikni o'rnatib:

a) Tovarlik indeksi

$$1. M_x = \frac{1}{MRS}$$

$$2. E_k = Y_a M M_x E / 100$$

b) Eksport kvotasi

$$3. T_i = \frac{E+I}{Y_a M M} \times 100$$

$$4. E_k = \frac{E}{Y_a M M} \times 100;$$

v) Tashqi savdo mul'tiplikatori.

$$5. Y = C + I + G + N_x$$

3. Proteksionizm:

a) boj to'lovlarini oshirish;

b) importni cheklash;

v) kvotalash;

g) savdo to'siqlarini olib tashlash;

d) fritrederlik.

4. Taqqoslanma afzallik tamoyili birinchi marta (Mal'tus, Adam Smit, Pol Samuel'son, D. Rikardo, Marshall) tomonidan ishlab chiqilgan.

5. Import boji va kvotasi o'rtasidagi farq shundan iboratki, boj(poshlina):

a) xalqaro savdoning qisqarishiga olib keladi;

b) narxlarning o'sishiga olib keladi;

v) davlat byudjetiga daromadlar keltiradi;

g) mamlakatda turmush farovonligini pasaytiradi;

d) iqtisodiyotga inflyasion ta'sir ko'rsatadi.

6. Proteksionizm tarafdorlarining fikri bo'yicha savdo to'siqlari:

a) yosh tarmoqlarni xorijiy raqobatdan himoya qilish uchun;

b) ichki bandlikni o'stirish uchun;

v) dempingni bartaraf etish uchun;

g) mamlakat mudofaasini ta'minlash uchun zarur;

d) barcha javoblar to'g'ri.

? Mashqlar:

1. Tasavvur qilaylik AQShda tranzistorli radiopriyomniklar bozorida talab va taklif quyidagicha tasvirga ega bo'lsin:

Narx (dollar).	Talab hajmi (mln dona)	Taklif hajmi (mln dona)
5	5	2
10	4	3
15	3	4
20	2	5

Yaponiyada tranzistorli radiopriyomniklar bozorida talab va taklif quyidagicha tasvirga ega:

Narx (dollar).	Talab hajmi (mln dona)	Taklif hajmi (mln dona)
5	2.5	1
10	2.0	3
15	1.5	5
20	1.0	7

a) Faraz qilaylik, ikki mamlakat o'rtasida o'zaro erkin savdo amalga oshiriladi. Radiopriyomnikning muvozanatli narxi nimaga teng bo'ladi?

b) Qaysi mamlakat radiopriyomnikni eksport qiladi?

v) Eksport hajmi nimaga teng?

g) Aytaylik, AQSh har bir radiopriyomnikka 10 dollar hajmida import bojini joriy etdi. Eksport va import hajmida nima o'zgarishlar yuz beradi?

2. Tasavvur etaylik, A va V mamlakat velosiped va tennis raketkalari ishlab chiqarsin va ikkala mamlakat ham umumiy valyutadan foydalansin. quyida A va V mamlakatlarda ikki tovarni ishlab chiqarish uchun mehnat xarajatlari keltirilgan:

Mehnat sarflari (mahsulot birligiga soat)

	A mamlakat	V mamlakat
Velosipedlar	60	120
Raketkalar	30	40

a) Qaysi mamlakat ikkala tovarni ishlab chiqarishda mutloq ustunlikka ega.

b) Har bir mamlakat uchun raketkalarda ifodalangan velosiped ishlab chiqarish muqobil xarajatlarini, velosipedda ifodalangan raketka ishlab chiqarish muqobil xarajatlarini hisoblang.

v) Qaysi mamlakat velosiped ishlab chiqarishda taqqoslanma avfzallikka ega.

Aqliy trening:

1. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi savdosi tuzilmasidagi tafovut nimalardan iborat?

2. Xorijiy sarmoyalar uchun mamlakatimizning investision iqlim jozibadorligini qanday omillarga bog'laysiz?

3. "Ochiq iqtisodiyot" tushunchasini kengroq sharhlab bering?



Mehnat iqtisodiyoti va ijtimoiy mehnat munosabatlarini boshqarish

Mehnat insonning moddiy va nomoddiy boyliklar ishlab chiqarishdagi maqsadga muvofiq faoliyati bo'lib, har qanday hayotiy faoliyatining asosidir. Binobarin, mehnat mavjud tabiiy, moddiy, ma'naviy, shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlar uchun kerakli mahsulotni yaratishda faqat insonning xos foaliyatidir.

Ayni vaqtda mehnat - bu murakkab ijtimoiy psixologik jarayon bo'lib, u kishilarning yashashi uchun shart bo'lgan abadiy tabiiy zaruratdir.

Bozor munosabatlari sharoitida inson-mehnat sub'ekti o'z mehnat salohiyatini o'zini-o'zi band qilish asosida, ya'ni u o'z mahsulotini bozorda sotadigan mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi, ish beruvchi, mulk sub'ektiga tavsiya etadigan yollanma ishchi sifatida amalga oshirishi mumkin.

Mehnat munosabatlari mehnat bozorida vujudga keladi va rivojlanadi. Mehnat bozori bozor iqtisodiyoti tuzilmasining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Mehnat bozorida ish beruvchi va yollanma xodim o'rtasida iqtisodiy munosabatlar vujudga keladi va natijada ishchi kuchiga talab, taklif va ishchi kuchi narxi qaror topadi.

Mehnat bozorining asosiy sub'ektlari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- ishlab chiqarish omillari egalari va ularning manfaatlarini himoya qiluvchi muassasalar;
- yollanma xodimlar va ularning manfaatlarini aks ettiruvchi tashkilotlar;
- ish beruvchi va yollanma xodim o'rtasida vositachi sifatida davlat.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozori bir qator ijobiy tavsiflarga ega bo'ladi, jumladan:

- bugungi kun talablariga javob bera oladigan ishchi kuchini takror yaratishda muhim o'rin tutadi;
- tarmoq va hududlar o'rtasida ishchi kuchining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'min etadi;
- ishchi kuchi safarbarligini faollashtiradi;
- mehnat unumdorligi o'sishini rag'batlantiradi.

Mehnat munosabatlari muammosi davlat islohotchiligida alohida o'rin tutadi. Mehnat sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- sermahsul mehnat motivi va rag'batlarini kuchaytirish uchun iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaratish;
- mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xodimlarning oylik maoshlarini tartibga solish tizimini yaratish;
- mehnat moddiy texnik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish asosida mehnat unumdorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqarish;

- mehnat qonunchiligini takomillashtirish;
- mehnat munosabatlariga oydinlik kiritish maqsadida davlat-ning kasaba uyushmalari bilan hamkorligini kuchaytirish;
- aholi bandligini oshirish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- demografik vaziyatni bashoratlash va mehnat salohiyatini shakllantirish.

Mehnat iqtisodiyoti va sosiologiyasi deyilganda, birinchi navbatda, mehnat faoliyatini tashkil qilish, mehnatga haq to'lash, mehnat sharoiti va mehnat unumdorligi muammolari, mehnatni tashkil etishning ijtimoiy omillari tushuniladi.

? Asosiy tushuncha va terminlar:

- a) mehnat.
 - b) mehnat jarayoni.
 - v) ijtimoiy munosabatlar.
 - g) mehnat sosiologiyasi.
 - d) mehnat resurslari.
 - e) moddiy resurslar.
 - j) mehnat iqtisodi.
1. Mamlakat aholisining o'z psixofiziologik va aqliy sifatlari bilan moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga yoki xizmatlar ko'rsatishga qodir bo'lgan qismi.
 2. Ishlab chiqarish jarayonining moddiy asosini tashkil etuvchi ne'matlar (xom-ashyo, asbob uskuna va hokazolar) yig'indisi.
 3. Mehnat sohasida iqtisodiy qonunlarning amalda bo'lish me-xanizmini o'rganuvchi fan.
 4. Mehnatga ijtimoiy va iqtisodiy rag'batlarning ta'siriga javoban ish beruvchi va yollanma xodimlarning munosabati (xulq - atvori).
 5. Ijtimoiy guruh a'zolarining ijtimoiy ahvoli, turmush tarzi va boshqa shu kabi masalalar bo'yicha o'zaro munosabatlari.
 6. Xodimning ishlab chiqarish vositalari, yoki boshqa xodim bilan o'zaro ishlab chiqarishni tashkil etish yuzasidan hamkorlik jarayoni.
 7. Moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan, insonning maqsadli faoliyati.

? To'g'ri - noto'g'ri:

1. Ishlab chiqarishning oliy maqsadi - bu boylik to'plashdir.
2. Mehnat - bu, eng avvalo, ehtiyojdir.
3. Aholi sonning o'sishi mehnat resurslarida akslanmaydi.
4. Mehnat insonning jismoniy va ma'naviy sifatlarini rivojlantiradi.
5. Mehnat bozori aholi sonining o'sishi va migrasiyasi muammolarini o'rganadi.
6. Menejment va mehnat sosiologiyasi ayni bir muammo ustida izlanadi.
7. YOllanma xodimlar - bu mehnat shartnomasi asosida ishlovchi xodimlardir.

? Mashqlar:

Quyidagi ma'lumotlar asosida mehnat resurslari sonini aniqlang:

- Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni - 16 mln kishi;
- Ishlamaydigan aholi (o'smirlar, nafaqaxo'rlar, nogironlar) - 4 mln kishi;
- Ishlovchi o'smirlar va nafaqaxo'rlar - 0,8 mln.kishi.

? Aqliy trening:

1. Fiziokratlar o'z qarashlarini quyidagicha bayon qilishgan: "Er boylikning onasi, mehnat uning otasi va faol prinsipidir."

Siz, ushbu g'oyaga o'z fikringizni bildiring.

2. Evropa taraqqiyot va tiklanish banki O'zbekistonda kichik va o'rta biznes rivojlanishiga quyidagicha tavsif beradi:

"O'zbekiston iqtisodiyoti kabi yangi yuzaga kelayotgan bozor va o'tish iqtisodiyotlariga kichik va o'rta biznes bandlikni yaratishning asosiy manbai bo'lishi lozim. Italiyada ish bilan band aholining taxminan 80% i, Buyuk Britaniya va Yaponiyada - 70% idan ortig'i, Fransiya va Germaniyada - taxminan 66%i, AQShda-55%i kichik va o'rta biznesga to'g'ri keladi. O'zbekistonda kichik va o'rta biznesning umumiy bandlikdagi xissasi faqat 7%ni tashkil qiladi".

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ustivorlik berilish sabablarini siz, qanday izohlaysiz?

? Test: Siz, mabodo geniy emasmisiz?

Kaliforniya universiteti tomonidan taqdim etilayotgan test, sizning aqliy salohiyatingizni ishonarli tarzda aniqlashga imkon beradi. Test savollariga javob berish uchun, bir qator mikroma-salalarni hal etish lozim. O'zingizni sinab ko'ring, albatta sizga ham ma'qul bo'ladi.

Savollar:

1. Professor kechkurun soat 8 da yotadi, soat qo'ng'irog'i ertalab soat 9 da jiringlaydi. Professor necha soat uxlaydi?
2. Erkak o'z bevasining singlisiga uylanishi mumkinmi?
3. Avstraliyada 1-sentyabr bormi?
4. Abdullaning 10 ta qo'yi bor, 9 dan tashqari hammasi, o'lgan. Necha qo'y qolgan?
5. Siz, Gavanadan Moskvaga, Aljirda ikki marta qo'nib uchuvchi samolyot uchuvchisiz. Uchuvchi necha yoshda?
6. Odatda oy o'ttiz yoki o'ttiz bir kun bilan yakunlanadi. Qaysi oyda yigirma sakkizinchi kun bor?
7. Siz, qorong'u, notanish xonaga kirib qoldingiz. Xonada gazli va benzin lampalari bor. Birinchi navbatda, qaysi lampani yoqasiz?
8. Birinchi poezd Moskvadan Sankt - Peterburgga, ikkinchi poezd Sankt-Peterburgdan Moskvaga qarab yo'lga chiqdi. Ular bir paytda yulga chiqkan, biroq

birinchi poezd tezligi ikkinchi poezd tezligiga qraganda uch karra yuqori. Poezdlar uchrashishi paytda, qaysi biri Moskvadan uzoqroqda bo'ladi?

9. Ota va o'g'il avtofalokatga uchradi. Ota gospitalda vafot etdi. Palataga kirgan xirurg jarohatlangan bolani ko'rsata turib, yonidagilarga qarata: "Bu mening o'g'lim" - deb aytdi. Bu so'z haqiqat bo'lishi mumkinmi?

10. Arxeologlar eramizdan avvalgi 35- yilda zarb etilganligi qayd etilgan tanga topib olishdi. Bu bo'lishi mumkinmi?

11. Tayoqni 12 qismga bo'lish lozim. Tayoqni necha marta arralash lozim?

12. Qo'llarda 10 ta barmoq bor. 10 ta qo'lda nechta barmoq bor?

13. Noy o'zining xaltasiga hayvonlardan qancha miqdorda olgan?

14. Vrach bemorga har biri yarim soatdan so'ng buyuriladigan uchta ukol yozib berdi. Barcha ukollarni qilish uchun qancha vaqt talab etiladi?

15. 1 dan 100 gacha bo'lgan sonlar qatorida nechta "9" raqami mavjud?

16. Yolg'iz tunggi qorovul, kunduzi o'lib qoldi. Unga nafaqa berishadimi?

17. Ettita sham yonib turgan edi. Uchtasi o'chib qoldi. Nechta sham qoldi?

18. /isht bir kilogramm va yana yarim g'isht bo'lagi og'irligiga teng. /isht qancha og'irlikka ega?

19. Yomg'ir paytida quyon qanday buta ostida jon saqlaydi?

Natijalarni qayta ishlash.

Har bir kalitga mos tushgan javob uchun 1 balldan olasiz.

Kalit (to'g'ri javoblar)

1. Bir soat (soat ertalab va kechqurunni farqlamaydi).
2. Yo'q (beva- bu, eri o'lgan ayol).
3. Albatta.
4. To'qqiz.
5. Siz uchuvchisiz(siz necha yoshda bo'lsangiz, uchuvchi ham shu yoshda).
6. Hammasida.
7. Gugurtni.
8. Bir xil (uchrashuv paytida ular bir xil nuqtada bo'ladilar).
9. Agar, xirurg- bolaning onasi bo'lsa.
10. Yo'q, u paytda tangalarga zarb qilingan yilni yozishmagan.
11. 11 marta.
12. 50.
13. Har bir hayvondan bir juftdan.
14. 1 soat.
15. 20.
16. Yo'q, u o'lgan.
17. Uchta (uchtasi o'chib qolgan, qolganlari yonib tugagan).
18. 1,0 kilogramm
19. Ho'l buta ostida.

Tashxis:

18 balldan - 19 ballgacha: Siz geniy!!!

15 balldan - 17 ballgacha: Aqlli!

13 balldan - 14 ballgacha: Rosmana odam.

9 balldan - 10 ballgacha: oddiy xayolparast.
6 balldan - 8 ballgacha: mutloq xayol parast.
4 balldan - 5 ballgacha: fikrlashga layoqatsiz.
o balldan - 3 ballgacha: jamiyatdan uzib qo'yish lozim.



Mehnat bozori, bandlik, ishsizlik

Mehnat bozori - bu, qimmatli qog'ozlar, xom-ashyo va resurslar bozori kabi bozorlar bilan bir qatorda mavjud bo'luvchi bozor tuzilmasining tarkibiy qismidir.

Umumiy holatda, mehnat bozori deyilganda, bir tomondan - ish beruvchi, ikkinchi tomondan - yollanma xodimlar hamkorlikda bo'luvchi, bozor iqtisodiyotining alohida qo'yi tizimi tushuniladi. Bu o'zaro hamkorlik (munosabat) natijasida ishchi kuchiga talab va taklif hajmi, nisbati va tuzilmasi shakllanadi.

Mehnat bozorining tarkibiy tashkil etuvchilari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

1. Mehnatga talab;
2. Mehnat taklifi;
3. Ishchi kuchi narxi;
4. Ishchi kuchi qiymati;
5. Raqobat;

Mehnat bozori amalda bo'lishining asosiy mexanizmi - raqobatdir. Raqobat yollovchilar o'rtasida yuqori malakali ishchi kuchini jalb etish yuzasidan, ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida xodimlar o'rtasida bo'sh ish o'rinlarini egallash yuzasidan, xodimlar va ish beruvchilar o'rtasida mehnat sharoitlari, ish haqi va shu kabi masalalar bo'yicha kelishish yuzasidan vujudga keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bandlik va ishsizlik muammosi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Aholi bandligi deyilganda, qonunchilikka zid kelmaydigan, qoidaga muvofiq mehnat daromadi keltiruvchi, shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq fuqarolarning faoliyati tushuniladi.

Bandlik xizmati organlarida to'g'ri keluvchi ish topish va unga kirish maqsadida rasman ro'yxatdan o'tgan, ish va ish haqiga ega bo'lmagan 16 va undan katta yoshdagi fuqarolar ishsizlar tarkibiga kiritiladi.

Ishsizlik mehnatga layoqatli aholi va mehnat faoliyati bilan bandlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Ishsizlik muammosi jamiyat uchun ishchi kuchidan to'liq foydalanmaslik, yaratilayotgan milliy mahsulot hajmining qisqarishi kabi salbiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy siyosat predmeti bo'lib, fuqarolarning ikki o'zaro bog'liq guruhlarini mehnatga qobiliyatli va mehnatga qobiliyatsiz qismlari o'rtasidagi munosabat

muammolari hisoblanadi. Tabiiy ravishda ikkala guruh ham ijtimoiy siyosat sohasi orqali qamrab olinishi lozim. Davlatning mehnat, bandlik, ish haqi va shu kabi masalalar borasidagi siyosati ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismlari bo'lib xisoblanadi.

Ijtimoiy siyosatning muhim masalalaridan biri ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish bo'lib hisoblanadi, biroq buning uchun katta mablag' talab etiladi, bu albatta iqtisodning vazifasi, lekin iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish sur'atlari pasayishi oldini olish yuksak malakali, samarali va daromad keltiruvchi mehnatsiz mumkin emas. Agar ijtimoiy siyosat faqatgina aholining ijtimoiy nochor qatlam-larigagina yo'naltirilsa, (bolalar, o'smirlar, nogironlar, ko'p bolali onalar va shu kabilar) u holda ijtimoiy siyosat haqqoniy va to'laqonli tavsifga ega bo'la olmaydi. O'zbekiston ichki siyosatining negizini mehnatni rag'batlantirishning kuchli mexanizmi asosida inson manfaatlarini ruyobga chiqarishga va aholi ijtimoiy nochor qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qaror toptirish tashkil etadi. Ayni paytda O'zbekiston jahon hamjamiyati etirof etgan "O'zbek milliy modeli" asosida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qaror toptirish yo'lidan ildam odimlab bormoqda. Bu o'rinda rejali va erkin (liberal) bozor iqtisodidan farqli tarzda, milliy model islohotlar va iqtisodiy rivojlanishning maqsadi bo'lgan inson taraqqiyoti uchun to'la to'kis sharoitlar yaratish, ishonchli kafolatlarni ta'minlash va axoli turmush darajasini yaxshilash bo'lgan, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qaror toptirishni ko'zda tutadi.

Hozirgi paytda bozor iqtisodiyotiga o'tishning milliy modeli doirasida davlatning ijtimoiy siyosati mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonini to'la poyoniga etkazish va xaqiqiy mulkdorlar qatlamini shakllantirish: milliy valyuta qadrini mustahkamlash: Milliy xo'jalikni tuzilmaviy qayta qurish kabi islohotlar joriy bosqichining muhim vazifalaridan kelib chiqadi va shu asosga tayanadi. Ijtimoiy siyosatning bosh maqsadlari bo'lib, aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilash fuqarolarning mehnat va xo'jalik yuritish faolligini rag'batlantirish asosida barcha ijtimoiy guruhlar uchun ma'naviy va moddiy ehtiyojlarni to'la qonli tarzda qondira olishlari uchun sharoitlar yaratish, ijtimoiy adolatni kuchaytirish, ijtimoiy kafolat va ijtimoiy himoya mexanizmini takomillashtirish bo'lib hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlat ijtimoiy siyosatining asosini quyidagilar tashkil etadi:

- xalq farovonligini oshirish asosi sifatida iqtisodiy faoliyat erkinligini ta'minlash;
- mehnat faolligini oshirish;
- yo'naltirilgan ijtimoiy himoyalash, haqiqatda nochor aholi qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash.

Iqtisodiy islohotlarning joriy bosqichida O'zbekistonda olib borilayotgan davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi.

- aholi daromadlarini tartibga solish;
- aholini ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash;
- bandlik muammosini hal etish;

- ekologik jihatdan zararli ishlab chiqarishlarni tugatish;
- sog'liqni saqlash, ta'lim va madaniyatni moliyalashni qayta tashkil etish;
- respublikamizda demografik holatni yaxshilash.

Milliy iqtisodiyotda aholining muhtoj qatlamlariga aniq yo'nal-tirilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda mavjud demografik vaziyatni o'rganish ayniqsa muhimdir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda tug'ilish va tabiiy o'sishning yuqori koefesientlari saqlanib qolmoqda, an'anaviy ko'p bolali oiladan o'rtacha sonli bolali oilaga o'tishning o'ziga xos demografik jarayoni kechmoqda. Agar 1897 yilda respublika hududida 3,9 million kishi istiqomat qilgan bo'lsa, o'tgan 100 yildan ko'p davr ichida aholi soni 6,3 marta o'sdi. Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda 25 milliondan ziyod aholi istiqomat qilmoqda.

Aholi sonining o'sishi aholi yashash zichligi o'sib borishi bilan birgalikda kuzatilmoqda. Jumladan, 1940 yilda 1 kv km. ga 14.6 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 1999 yilga kelib bu ko'rsatkich 54.1 kishini tashkil etdi, yoki 3.1 marta o'sdi. Aholining ba'zi hududlarda haddan tashqari zich joylashuvi aholini oziq ovqat mahsulotlari, ichimlik suvi va ish joylari bilan ta'minlashda bir qator murakkabliklarni keltirib chiqar-moqda. Ushbu muammolar ekologik vaziyatning yomonlashuvi, kasal-liklarning o'sishi bilan yanada chigallashmoqda. Mamlakatimizning aholisi zich joylashgan mintaqalariga mehnat resurslarining 81% i to'g'ri keladi. Aholisi zich joylashgan mintaqalar ishlab chiqarish tarmoqlarining keng rivojlanganligi bilan tavsiflansa, aholi zichligi past bo'lgan mintaqalar uchun ishlab chiqarishning tor ixtisoslashuvi va ekologik muhitning keskin yomonlashuvi xosdir.

Aholi soni o'sishi shakllanishining umumiy manbalari bo'lib, uning tabiiy va mexanik o'sishi bo'lib hisoblanadi. Agar 70 - yillarning boshida respublikamizda aholi migrasiyasining ijobiy sal'dosi kuzatilgan bo'lsa, 70-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, aholining ko'chib ketishi kuzatildi. Ayni vaqtda aholi migrasiyasining salbiy sal'dosi 1991 yildagi 180 ming kishidan 1999 yilga kelib, 50 ming kishigacha qisqardi. Hozirgi kunga kelib, O'zbekistonda aholining umumiy o'sishi tabiiy o'sish hisobiga kechmoqda. Bugungi kunga kelib, aholining tabiiy o'sish sur'atlari ham pasayib bormoqda. Ushbu holat fuqarolarimizning oilani oqilona rejalashtirishga ko'proq e'tibor berayotganliklari bilan izohlanadi.

Respublikamizda 1979- 1999 yillar mobaynida aholining yosh tarkibi bir muncha progressiv ahamiyat kasb etdi. 1999 yilda mamlakatimiz aholisining umumiy sonida mehnat yoshiga etmagan bolalar va o'smirlar ulushi 41 % ni, mehnat yoshidagilar ulushi 51.2 % ni, mehnatga qobiliyatlilar yoshidan katta bo'lganlar ulushi 7.5 % ni tashkil etdi. Rivojlanishning ayni darajasida respublikamiz uchun aholining qarishi kuzatilayotgani yo'q. O'tgan asrimizning 50- yillarida ikkinchi jahon urushi oqibatida, tug'ilish sur'atlarining pasayib ketishi tufayli, aholining qarishi kuzatilgan edi.

Qishloq aholisining doimiy tarzda o'sib borayotganligi, O'zbekistonda demografik rivojlanishning o'ziga xos xususiyati bo'lib hisoblanadi. Aholining

uchdan ikki qismini tashkil etuvchi qishloq aholisi aholining tabiiy o'sish sur'atlarini belgilab beradi. Bu esa qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga alohida e'tibor berilishini talab etadi.

? Asosiy tushuncha va terminlar:

- a) mehnat bozori;
 - b) mehnatga talab;
 - v) mehnat taklifi;
 - g) ishchi kuchi narxi;
 - d) ishchi kuchi qiymati;
 - e) ko'lam (miqyos samarasi);
 - j) o'rin almashtirish samarasi;
 - z) ishsizlik;
 - i) mahsuldor bandlik;
 - k) to'la bandlik;
 - l) bandlik darajasi;
 - m) samarali bandlik.
1. Umumiy ishchi kuchi tarkibiga kiruvchi ishga qobiliyatlilar va mehnat faoliyati bilan bandlar soni o'rtasidagi farq.
 2. Siklik ishsizlik mavjud bo'lmagan, biroq, friksion va tuzilmaviy ishsizlik mavjud holatidagi bandlik.
 3. Aholining ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lishi.
 4. Ish haqining o'sishi natijasida, mehnatni (ishchi kuchini) boshqa intensiv, arzon texnologiyalarga almashtirish.
 5. Ish haqining o'sishi (pasayishi) natijasida ishlab chiqarish ko'lamlarning o'zgarishi.
 6. Mehnat bozorida aks etuvchi, ishchi kuchiga bo'lgan jamiyat ehtiyojlari umumiy hajmi.
 7. Son va tarkib jihatdan tavsiflanuvchi ishchi kuchining umumiy miqdori.
 8. Ish beruvchi va yollanma xodimlar o'rtasida talab va taklif asosida vujudga keluvchi bozor munosabatlari.
 9. Ish haqi.
 10. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun ijtimoiy sarflar.
 11. Ayni vaqtda, o'z ishiga ega bo'lgan ishchi kuchining foizlardagi miqdori.
 12. Ham iqtisodiy, ham ijtimoiy nuqtai nazardan baholangan bandlik.

? To'g'ri - noto'g'ri:

1. Ixtiyoriy ishsizlik - iqtisodiy tushkunlik holatida ishchi-larning o'z ish joylaridan mahrum bo'lishlari natijasida vujudga keladi.
2. To'la bandlik sharoitida ishsizlikning hech qanday ko'rinishi mutlaqo mavjud bo'lmaydi.

3. Aholi bandligi deyilganda, qonunchilikka zid kelmaydigan, qoidaga muvofiq daromad keltiruvchi, shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan fuqarolarning fao-liyati tushuniladi.
4. Qonunchilikka muvofiq, O'zbekistonda mehnat yoshi 18 yosh etib belgilangan.
5. Ishsizlik va inflyasiya o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud.
6. Iqtisodiy faol aholi bandlar va ishsizlar sonidan tarkib topadi.
7. Mehnat bozoridagi muvozanat ishchi kuchiga talab va taklifning bir biriga muvofiq kelish holatida vujudga keladi.

? **Testlar:**

1. **Moslikni o'rnating:**

- | | |
|------------------------------------|--|
| a) Mehnat bozori
komponentlari. | 1. Mehnat talabi.
2. Davlat.
3. Tadbirkorlar.
4. Mehnat taklifi. |
| b) Mehnat bozori
sub'ektlari | 5. Ishchi kuchi narxi va qiymati.
6. Kasaba uyushmalari.
7. YOllanma xodimlar.
8. Raqobat |

2. **Ketma-ketlikni shakllantiring:**

Mehnat bozorini o'rganishda mehnatga talab, odatda to'rt bosqichda tahlil etiladi:

- a) tarmoq;
- b) yaxlit iqtisodiyot;
- v) alohida korxona, tashkilot;
- g) mintaqa (hudud).

3. **O'zbekiston Respublikasida, ayrim hollarda ... yoshdan boshlab mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat etiladi.**

4. Oukun qonuniga muvofiq, haqiqiy ishsizlik darajasining tabiiy ishsizlik darajasidan ikki foizga ortiq bo'lishi natijasida haqiqiy YaMM hajmi real. YaMM hajmidan

- a) 2%; b)3%; v) 4%; g) 5%; d)5% dan ko'p darajada ortda qoladi.

5. Ishsizlik va inflyasiya o'rtasida ... bog'liqlik mavjud.

6. **Tez orada, yangi ish topish umididagi inson:**

- a) bandlar toifasiga mansub;
- b) ishsizlar toifasiga mansub;
- v) ishchi kuchi tarkibida hisobga olinmaydi;
- g) to'liqsiz band sifatida ko'riladi;
- d) ish topishdan umidini uzgan inson sifatida ko'riladi.

7. Agar, odam kasal va ishlay olmasa, 6 - testning qaysi javobi to'g'ri.

8. **To'la bandlik sharoitida friksion ishsizlik darajasi:**

- a) 0 ga teng bo'lishi;

- b) 1% dan kam bo'lishi;
- v) ishsizlikning siklik darajasidan, past bo'lishi lozim;
- g) barcha javoblar to'g'ri;
- d) barcha javoblar noto'g'ri.

9. Moslikni o'rnatish:

- | | |
|-------------------------------|-----------------------------|
| a) Ijtimoiy yordam turlari | 1. ishsizlar. |
| | 2. pensiya |
| | 3. nafaqa |
| | 4. nogironlar |
| | 5. talabalar |
| b) Ijtimoiy himoya ob'ektlari | 6. moddiy yordam |
| | 7. imtiyozlar |
| | 8. boquvchisi yo'q bolalar. |

? *Mashqlar:*

1. Quyida sanab o'tilgan shaxslarning, ishchi kuchi va bandlikka munosabati nuqtai nazardan maqomini aniqlang, agar ular quyi-dagicha tasniflansalar:

- Bandlar (B)
- Ishsizlar (Ish)
- Ishchi kuchi tarkibiga kiritmaydiganlar (I.t.k)
- a) o'z xohishi bilan ishdan bo'shatilgan, xodim.
- b) to'liqsiz ish kuni ish tartibiga o'tkazilgan, xodim.
- v) o'z sog'ligi tufayli boshqa ishlay olmaydigan, o'qituvchi.
- g) o'quv yurtining kunduzgi bo'limida tahsil oluvchi, talaba.
- d) o'quv yurtining kechki bo'limida tahsil oluvchi, avtomexanik.
- e) uzoq muddat davomida ish topa olmagan va ish izlashni to'xtatgan, ishdan bo'shatilgan, ishchi.
- j) Oilasi va uyi bilan mashg'ul, uy bekasi.

2. Quyidagi ma'lumotlar mavjud:

- bandlar soni 90 mln. kishi.
- ishsizlar soni 10 mln. kishi.
- a) ishsizlik darajasini hisoblang.
- b) bir oydan so'ng, ishga ega bo'lgan 90 mln kishidan 0,5 mln kishi ishdan bo'shatildi, rasman ishsiz deb e'tirof etilganlardan 1 mln. kishi ish izlashni to'xtatdi.

Quyidagilarni aniqlang:

- 1) bandlar soni; 2) ishsizlar soni; 3) ishsizlik darajasi.

? *Aqliy trening:*

1. Xalqimiz orasida "Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin", "Ishning o'zini bilgancha, ishning ko'zini bil" kabi hikmatli gaplar yuradi. Sizning fikringizcha, bu hikmatli gaplarning mavzuga nima dahli bor.

2. "Haddan tashqari kuchli ijtimoiy siyosat, jamiyatda boqimandalik kayfiyatini uyg'otadi", - degan fikrga o'z munosabatingizni bildiring.

? Test: Siz, ayyorsiz

Shunday odamlar borki, ular uchun chiqib bo'lmas holatning o'zi yo'q. Ayyor o'z maqsadiga erishishning minglab usullarini biladi. Bozor sharoitida bu harakterning foydali tomonidir. Siz-chi? Bu savolga javob topish uchun, siz bizning testimiz savollariga javob bersangiz kifoya, xolos.

1. Siz biror bir yoqimsiz (qo'pol) narsani so'zlashdan oldin, suhbat-doshingizni ranjitib qo'ymaslik haqida, o'ylab ko'rasizmi?
2. O'qishga, ishga kech qolgan paytingizda, hech kimga sezdirmasdan kirishga harakat qilasizmi?
3. O'zingiz amalga oshirishdan hadiksiragan narsani, dugonangiz yoki o'rtog'ingizdan amalga oshirishlarini so'raysizmi?
4. Futbol, voleybol, tennis kabi o'yinlarda g'irrom qilib yutgandan ko'ra, halol yutqazgan ma'qul deb hisoblaysizmi?
5. Kingadir hazil qilmoqchi bo'lsangizda, odam darhol bu kimning ishi ekanligini sezib qoladi?
6. Odamni ochiq bo'lishga undash maqsadida, nohaqlikni oshkora ayta olasizmi?
7. O'qishda (institutda) qo'shningizdan sezdirmasdan ko'chira olasizmi?
8. Har doim, o'zingiz istalgan narsaga ega bo'lish uchun, yo'l topa olasizmi?
9. Hech kimga sezdirmasdan, ayyorlik qilish qo'lingizdan keladimi?

2,3,5,6,7,8,9 savollarga ijobiy javob uchun 1 ochkodan; 1,4, to'rtinchi savollarga salbiy javoblar uchun ham 1 ochkodan o'zingizni baholashingiz mumkin.

Natija(siz ayyorsiz).

Agar, 6 ochkodan ko'p ochko olgan bo'lsangiz, siz oddiy ayyorlardan emas. Siz o'ta ayyorsiz. Siz erishishingiz mumkin bo'lmagan narsaning o'zi yo'q. Biroq buning bir manfiy tomoni bor. Ayyorlik ko'pincha odamlar bilan munosabatda soxtalikka olib keladi. Ba'zan, biroz ochiqroq bo'lishga intiling.

3 dan 6 ochkogacha. Siz, shubhasiz, aqlsiz. Sizni hech kim alday olmaydi. Biroq, ayni paytda yolg'on gapirishni yoqtirmaysiz. Bu yaxshi. Ochiqlik odamlarni yaqinlashtiradi.

Agar, sizda 3 ochkodan kam bo'lsa, afsuski, siz, o'ta ishonuvchan (sodda laqma)siz va sizni aldash juda oson.

Siz ko'pincha xayol bilan yurasiz va shu bilan tanishlaringizga hazillashishlari uchun sharoit yaratib berasiz.



Aholining turmush darajasi

Millat, aholining farovonligi darajasini ifodalash uchun “turmush darajasi”, “xalq farovonligi”, “turmush sifati” kabi turli xil tushunchalar qo'llaniladi.

O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalaydigan “**turmush darajasi**” atamasi kengroq qo'llaniladi.

Bir tomondan, turmush darajasi muntazam o'zgarib turadigan turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi. Ammo ish haqi miqdori ham, turmush darajasi ham, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy - texnik taraqqiyot (ITT) darajasi, aholining madaniy - ma'rifiy saviyasi va tuzilmasi, milliy xususiyatlar, siyosiy hokimiyatga bog'liq.

Turmush darajasi - bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, ularning qondirilganlik darajasi va jamiyatda bu ehtiyojlarning rivojlanishi va ularni qondirish uchun yaratilgan kompleks ijtimoiy- iqtisodiy kategoriyadir.

Inson taraqqiyoti - kishilarning jamiyat hayotida siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy madaniy jihatdan ishtirok etishida tanlash uchun imkoniyatlarni muttasil ravishda kengaytiruvchi jarayondir

Har bir inson hayotida bu kabi imkoniyatlarning ko'payishi, jamiyatning oliy maqsadiga aylanishi kerak.

Uzoq va sog'lom hayot kechirish, bilim olish va manbalardan foydalana olish imkoniyatlari munosib turmush darajasining uch asosiy shartini tashkil etadi, chunki bularsiz insonning ko'pgina boshqa narsalarga etishishiga imkon bo'lmaydi.

Aynan shu tufayli sog'liqni saqlash, ta'lim tizimlarining taraqqiyot darajasi va daromadlar miqdori kabi ko'rsatkichlar Inson taraqqiyoti indeksi (ITI) ga eng muhim tarkibiy qismlar sifatida kiritiladi.

Jamiyat a'zolarining daromadlari darajasi shaxsning moddiy va ma'naviy imkoniyatlarini aniqlovchi, muhim farovonlik ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Biroq, bozor sharoitida daromadlarining notekis taqsimlanishi yuz beradi.

Davlat jamiyat hayotining ijtimoiy shart - sharoitlarini tartibga



Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo'lmaydigan, eng ustivor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi.

I. Karimov

solish borasida o'z faoliyatini, ya'ni ijtimoiy siyosatni amalga oshiradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish "aholini ijtimoiy himoyalash" tushunchasini joriy etishni qat'iy zarurat qilib qo'ydi.

Aholini ijtimoiy himoyalash - bu davlatning aholiga me'yoriy hayot sharoitlarini ta'min etuvchi to'g'ridan to'g'ri maqsadli kafolatlari tizimidir. Samarali ijtimoiy himoyalanganlik deyilganda, jamiyatning xar bir a'zosiga uning qobiliyatlarining rivojlantirish va undan foydalanish uchun zarur bo'lgan va uni yo'qotish hollarida ma'lum hayot darajasining minimal shart sharoitlarini kafolatlovchi iqtisodiy munosabatlar tizimi tushuniladi.

Ijtimoiy himoyani aniqlashtirishda uning tashkil etuvchilari quyidagilar bo'lib xisoblanadi:

- mehnatga qobiliyatlilar uchun ish joyi;
- mehnatga qobiliyatsiz aholi guruhlarini nafaqalar bilan ta'minlash;
- mehnat faoliyatidan daromad normal hayot darajasini ta'min etishi;
- uy joy, tibbiy va madaniyat xizmatlari bilan minimal teng imkonli tarzda ta'minlash;
- zamonaviy malakali ishchi kuchini shakllantirish uchun zarur bo'gan ta'lim olish.

Yuqoridagilarga mos tarzda davlat va uning boshqaruv tuzil-malarilari quyidagi vazifalarning hal etilishini kafolatlaydi;

Birinchidan, jamiyat mehnatga bo'lgan huquqiy ish joyiga ega bo'lish va mehnatga haq to'lash birga kafolatlaydi.

Davlat ijtimoiy yo'l qo'yiladigan mehnat sharoitlarini ,mehnatga haq to'lash minimal shartlarini kafolatlaydi, hamda mehnat bozorida uning ishtirokchilari teng huquqiyligi ta'min etilishini kafolatlaydi. Ushbu o'rinda nafaqat davlat tuzilmalari balki mehnatkashlarning tashkilotlari o'rni ham beqiyosdir.

Ikkinchidan, jamiyat davlat organlari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar tizimi orqali ish kuni tartibi,ish haftasi, ish yili, yuqori mehnat samaradorligi asosida uzoq muddat mehnatga qobilyatlilikni saqlab turish uchun qulay sharoitlarning qonuniy va boshqa ijtimoiy himoyasini kafolatlaydi.

Uchinchidan, jamiyat aholi ijtimoiy himoyalanganligining ustuvor talablarini xisobga olga holda ijtimoiy madaniy soha rivojlanishini kafolatlaydi. Sog'liqni saqlash, maorif, ta'lim va yuksak madaniyat saviyasini ta'minlash keyingi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya quyidagi ijtimoiy yordam ko'rinishlari orqali ta'minlanadi;

- pensiyalar;
- nafaqalar;
- imtiyoz, ustunlik va xizmatlar;
- bir martalik moddiy yordam.

Ijtimoiy himoya ob'ektlari bo'lib;

- nafaqa yoshidagi shaxslar;
- nogironlar;
- boquvchisini yo'qotgan bolalar;
- kam ta'minlangan oilalarning bolalari;

- homilador ayollar va bola parvarishi bilan band onalar;
- kasallik bo'yicha vaqtincha ishlamayotganlar;
- o'quvchi yoshlar;
- mehnatga qobiliyatsiz shaxslar parvarishi bilan band mehnatga qobiliyatli shaxslar hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi faol aholi guruhlarining imkoniyatlarini cheklab qo'ymasligi lozim.

? Asosiy tushuncha va terminlar:

a) turmush darajasi. b) iqtisodiy ko'rsatkichlar. v) ijtimoiy demografik ko'rsatkichlar. g) daromad. d) nominal daromad. e) real daromad. j) soliq. z) djinni koeffesienti. k) inson taraqqiyoti indeksi. l) milliy boylik. m) iste'mol fondi. n) jamg'arma fondi.

1. Ehtiyojlarning qondirilganlik, rivojlanganlik darajasi va bu ehtiyojlarni qondirish uchun jamiyatda yaratilgan imkoniyatlar majmui.
2. Ma'lum muddat mobaynida, alohida shaxslar tomonidan olingan pul miqdori.
3. Iqtisodiy faoliyat natijasi.
4. MDning majburiy tartibda davlat byudjetiga o'tkaziluvchi qismi.
5. Narxlar darajasini hisobga olgan holda, aniqlanuvchi daromad.
6. Inson va jamiyat hayotining iqtisodiy qirralarini, ehtiyojlarini qondirishning iqtisodiy imkoniyatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
7. Daromadlarning samarali taqsimlanishini ifodalovchi ko'r-satkich. Ko'rsatkich qiymati qanchalik 1 ga yaqin bo'lsa, daro-madlar shuncha notekis taqsimlanadi.
8. Aholining yoshi, jinsi, kasbiy - malakaviy tarkibini, ishchi kuchini jismoniy takror ishlab chiqarilishini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
9. Milliy daromadning ITT va ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilgan qismi.
10. Jamiyat a'zolari tomonidan yaratilgan va o'zlashtirilgan moddiy va ma'naviy ne'matlar yig'indisi.
11. Milliy daromadning jamiyat moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan qismi.
12. Jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot, kutilgan umr ko'rish davri, aholining ma'lumot darajasi kabi ko'rsatkichlar asosida hisoblab chiqiluvchi umumiy ko'rsatkich.

? To'g'ri - noto'g'ri:

1. Absolyut qashshoqlik - daromadlarning umuman yo'qligi yoki shaxsning (oilaning) nominal turmush ehtiyojlarini qondirish uchun zarur daromadning yo'qligidir.
2. Inson taraqqiyoti indeksi turmush darajasini to'liq aks ettiruvchi ko'rsatkichdir.
3. Kuchli ijtimoiy siyosat, jamiyatda boqimandalik ruhiyatini yuzaga chiqarishi mumkin.

4. Turmush darajasi sifati yuqori ish haqi bilan belgilanadi.
5. Turmush darajasini baholashda ekologik muhit omilini ham hisobga olish zarur.
6. Ijtimoiy ne'matlar, faqat davlat tomonidan ishlab chiqarilishi zarur.
7. Hamma fuqarolar bir xil soliq to'laganlarida, adolatdan bo'lar edi.
8. Jamiyat turmush darajasiga saylov natijalari ham bilvosita ta'sir etadi.

? **Testlar:**

1. Turmush darajasi-bu:

- a) ish haqining o'sish darajasi;
- b) ehtiyojlarning qondirilganlik darajasi;
- v) mavjud imkoniyatlar;
- g) moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning o'sishi;
- d) nominal daromadlarning o'sishidir.

2. Moslikni o'rnating:

- | | |
|---------------|--|
| a) Daromadlar | <ol style="list-style-type: none"> 1. Nominal 2. To'g'ri 3. Real 4. Egri |
| b) Soliqlar | <ol style="list-style-type: none"> 5. Tasarrufdagi |

3. Tasarrufdagi daromad ... uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan, daromaddir. Tasarrufdagi daromad nominal daromaddan ... summasiga kam.

4. Moslikni o'rnating:

- | | |
|-----------------------------|--|
| a) iqtisodiy ko'rsatkichlar | <ol style="list-style-type: none"> 1. Aholining yoshi va jinsi 2. Nominal va real daromadlar 3. Bandlik darajasi 4. Ishchi kuchi tarkibi va malakasi |
| b) Ijtimoiy ko'rsatkichlar | <ol style="list-style-type: none"> 5. Aholi sonining o'sishi 6. Bolalar o'limi |

5. Moslikni o'rnating:

- | | |
|---------------------------|---|
| a) Umumiy ko'rsatkichlar | <ol style="list-style-type: none"> 1. Milliy daromad 2. Milliy boylik 3. Iste'mol darajasi 4. Jon boshiga YaIM ulushi |
| b) Xususiy ko'rsatkichlar | <ol style="list-style-type: none"> 5. Ijtimoiy ta'minot 6. Mehnat sharoiti 7. Ijtimoiy madaniy xizmat ko'rsatish. |

6. Milliy daromad = YaMM - ... = ... - biznesga egri soliqlar.

7. Moslikni o'rnating:

- | | |
|---------------------|--|
| a) Siyosiy omillar. | <ol style="list-style-type: none"> 1. Milliy boylik 2. Milliy daromadning o'sishi 3. Mehnat unumdorligi |
|---------------------|--|

b) Iqtisodiy omillar

- 4. Davlat tuzilishi
- 5. Inson huquqlariga rioya etilishi
- 6. Ko'p partiyaviylik

? **Mashqlar:**

Quyidagi ma'lumotlar asosida O'zbekistonda inson taraqqiyoti ko'rsatkichlarini tahlil qiling va fikrlaringizni asoslab bering.

Markaziy Osiyoda inson taraqqiyoti ko'rsatkichlari (1991 y)

ITI pog'onasi	Mamlakat	Tug'ilgan chog'idan kutilayotgan umr uzoqligi (yosh)	Katta yoshdagi aholi ta'lim saviyasi (%)	Aholi jon boshiga o'rtacha daromad (XQP \$)
1	Kozog'iston	69	97,5	4490
2	Turkmaniston	66	97,7	3540
3	Qirg'iziston	68	97,0	3683
4	O'zbekiston	69	97,2	2790
5	Tojikiston	70	96,7	2180

Markaziy Osiyoda inson taraqqiyoti ko'rsatkichlari (1997 y)

ITI pog'onasi	Mamlakat	Global ITI bo'yicha darajasi	Tugilgan chog'idan kutilayotgan umr uzoqligi (yosh)	Katta yoshdagi aholi ta'lim saviyasi (%)	Boshlan-g'ich, o'rta va oliy ta'lim qamrovi (%)	Aholi jon boshiga o'rtacha daromad (XQP \$)
1	Kozogiston	76	68	99	76	3560
2	Turkmaniston	92	68	99	76	2670
3	Kirgiziston	96	65	98	90	2109
4	O'zbekiston	97	68	97	69	2250
5	Tojikiston	108	67	99	69	1126

? **Aqliy trening:**

1996 yil ma'lumotlariga ko'ra, nikohdan o'tganlar soniga nisbatan foiz hisobida ajralishlar O'zbekistonda 12% ni, Sharqiy Evropa, MDH mamlakatlarida 48% ni, sanoati rivojlangan mamlakatlarda 53 % ni tashkil etishini siz qanday izohlaysiz?

? **Test. Siz ta'sirchanmisiz:**

Quyidagi keltirilgan olti guruh javoblardan, sizning xarakterin-gizga mos tushadiganlarining tagiga chizing.

1 - guruh:

a) Ishda qarama - qarshi jins vaqillari bilan munosabatlarda, sport va azart (qimor) o'yinlarida Siz raqiblikdan qo'rqmaysiz va jiddiylik ko'rsatasiz.

b) Agar, uyinda bir necha ochko yo'qotsangiz va agar, qarama – qar-shi jins vakili (vakilasi) sizni dastlabki e'tibor belgilaringizga kerakli tarzda javob bermasa, siz taslim bo'lasiz va o'yindan chiqasiz.

v) Siz har qanday murosasizlikdan yiroqda bo'lishga intilasiz.

2 - guruh:

a) Siz sof qalblisiz va ushbu bilan ko'p narsaga erishishni istaysiz.

b) Siz o'tirib “ dengizda ob havoni”kutasiz.

v) Siz o'qishda, ishda chalg'itish yo'lini izlaysiz.

3 - guruh:

a) Siz tez ishlashni yoqtirasiz va ko'pincha ishni tezrok yakunlashga chidamsizlik qilasiz.

b) Sizni, kimdir “qo'llab” yuborishiga umid qilasiz.

v) Mashg'ulot, ishdan so'ng uyga kelib, bugun mashg'ulot, ishda nima bo'lganligi haqida o'ylaysiz.

4 - guruh:

a) Siz o'ta tez, o'ta qattiq so'zlashasiz. Suhbat davomida haddan tashqari qattiq gapirasiz va boshqalarni siltab tashlaysiz;

b) Sizga “yo'q” deb javob berishsa, siz o'ta bosiq munosabatda bo'lasiz.

v) Siz o'ta qiyinchilik bilan hissiyot va tashvishlaringizni yashirasiz.

5 - guruh:

a) Sizga ko'pincha zerikarli tuyiladi.

b) Sizga hech bir yumush bilan shug'ullanmaslik yoqadi.

v) Siz o'z xohishingiz bilan emas, boshqalarning xohishi bilan harakat qilasiz.

6 - guruh:

a) Siz tez yurasiz, tez ovqatlanasiz va ichasiz.

b) Siz biror yumushni bajarishni unutgan bo'lsangiz bu sizni bezovta qilmaydi.

v) O'z hissiyotingizni siz jilovlay olasiz.

Natijalar:

“a”-6 ball, “b”-4 ball, “v”-2 ball deb hisoblab, ballarni jamlang.

24-36 ball. Siz o'ta ta'sirchansiz, hatto sizda ta'sirchanlik oqibatida vujudga keluvchi, yurak etishmovchiligi, oshqozon- ichak yarasi kasalliklari belgilari paydo bo'lishi mumkin. Siz uchun hozir eng muhimi-tinchlanishga (bosiqlikka) o'rganish, bu shaxsan siz uchun ham o'rtoqlaringizga, eringiz (xotiningiz)ga va qolavesa barcha yaqinlaringiz uchun ham muhimdir.

18-24 ball. Siz bosiq, tushkunlikka berilmaydigan odamsiz. Agar, siz 18 balldan biroz yuqoriroq ball to'plagan bo'lsangiz, atrofdagilarga nisbatan sabrli bo'lishni, maslahat beramiz. Bu sizga ko'p narsaga erishish imkonini beradi.

12-18 ball. Sizning sustkashligingiz ham tushkunlik (ta'-sirchanlik) sababi bo'lishi mumkin. O'zingizga ko'proq ishoning! Siz, o'z ijobiy xislatlaringiz ro'yxatini tuzib chiqing va ular-ning har birini pishitib boring.



Test. Salomat bo'laylik:

Ushbu, murakkab bo'lmagan test yordamida, siz o'zingizning jismoniy holatingizni tekshirib ko'rishingiz mumkin. Sizning yuragingiz bilan hammasi, joyidami?

Bir yarim minut mobaynida oldinga 20 marta egilib turing (egilganda nafas chiqaring, to'g'rilanayotganda nafas oling). Mashq boshlanguncha pul'singizni o'lchab ko'ring (p1), mashqni yakunlab, yana darhol (p2) va bir minutdan so'ng yana pul'singizni(p3) o'lchab ko'ring. Umumiy yurak urishlari sonini hisoblab, undan 200 ni ayiring va 10ga bo'ling:

$$\frac{p1+p2+p3-200}{10}$$

Agar olingan natija:

0 dan 3 gacha chegarada bo'lsa,- sizning yuragingiz a'lo darajada;

3 dan 6 gacha chegarada bo'lsa,- yaxshi holatda;

6 dan 9 gacha chegarada bo'lsa,- o'rtacha holatda;

9 dan 12 gacha chegarada bo'lsa,- oraliq holatda;

12 dan yuqori chegarada bo'lsa,- darhol vrachga murojaat qilish lozim.

? Test: Jamoadagi ruhiy siklni (muhitni) o'rganish

Hurmatli o'rtoqlar! Quyidagi sanab o'tilgan, ruhiy muhit xususiyatlari sizni jamoangizda qanday namoyon bo'lishini, sizning fikringizcha haqiqatga mos keluvchi bahoni qo'ygan holda baholang.

Baholar:

3 - guruhda xususiyat doimo namoyon bo'ladi;

2 - ko'pchilik hollarda ko'zga tashlanadi;

1 - tez - tez ko'zga tashlanib turadi;

0 - ikkala xususiyat ham bir xilda namoyon bo'ladi.

№	A ruhiy muhit xususiyatlari	Baho	V ruhiy muhit xususiyatlari
1	Tetik, quvnoq kayfiyat ustunlik qiladi	3210123	Tushkunlik, ezilgan kayfiyat ustunlik qiladi
2	Munosabatlarda ochiqlik, bir-birini tushinish	3210123	Munosabatlarda murosasizlik, antipatiya
3	Jamoangiz ichida kichik guruhlar o'rtasidagi munosabatlar bir-birini tushinish asosida qurilgan	3210123	Guruhchalar o'zaro ziddiyatga borishadi
4	Vaqttni birgalikda o'tkazish, qo'shma faoliyatda ishtirok etish guruh a'zolariga ma'qul bo'ladi	3210123	Yaqin munosabatga farqsiz bo'lishadi hamkorlikka salbiy munosabat bildirishadi
5	Jamoadoshlarning yutuqlari qolgan-larni quvontiradi, mag'lubiyatlari tashvishlantiradi	3210123	O'rtoklarning yutug'i yoki kamchiligi qolganlari uchun befarq yoki hasad uyg'otadi
6	Boshqalarning fikriga hurmat bilan munosabatda bo'ladi	3210123	Har kim o'z fikrini muhim deb hisoblaydi, boshqalarni eshitishni xohlamaydi
7	Guruh muvaffaqiyati, kamchiliklari o'ziniki sifatida qabul qilinadi	3210123	Guruh muvaffaqiyati, va kamchiliklari uning a'zolarida tashvish uyg'otadi

8	Og'ir kunlarda guruh ruhan birla-shadi, hamma bir-birini qo'llaydi	3210123	Og'ir kunlarda guruhda ajralish, bir-biriga aybni to'ntarish avjiga chiqadi
9	Rahbariyat guruhni maqtasa, guruh uchun faxrlanish tuyg'usi uyg'onadi	3210123	Maqtov va rag'batlarga guruh farqsiz munosabatda bo'ladi
10	Guruh faol, kuch-quvvatga to'la	3210123	Guruh inert (mo'rt), sust
11	Yangi xodimlarga g'amxo'rlik ko'rsatishadi, jamoga moslashishlariga yordam berishadi	3210123	Yangi xodimlar o'zlarini begona his qiladilar, ularga nisbatan, ko'pincha dushmanlik kayfiyatini namoyon etishadi
12	Guruhda barcha a'zolariga adolatli munosabatda bo'lishadi, kuchsizlarni himoya qilishadi	3210123	Guruh ochiq "imtiyozlar" va "ikkinchi toifa"ga bo'linib qolgan. Kuchsizlarga nisbatan g'amxo'rlik yo'q
13	Hamkorlikdagi ish barchani qi-ziqtiradi, jamoaviy tarzda ishlash xohishi katta	3210123	Guruhni hamkorlikka undash iloji yo'q, har kim o'z manfaatini o'ylaydi

Natijalarni hisoblash

Chap tomondagi savollar uchun qo'yilgan baholarni jamlab- **A** yig'indiga; o'ng tomondagi savollar uchun qo'yilgan baholarni jamlab- **V** yig'indiga ega bo'lamiz; va **S** farqni topamiz: **S=A-V**

Agar, **S** 0 ga teng bo'lsa, yoki manfiy qiymatga ega bo'lsa, u holda shaxs nuqtai nazaridan yorqin ifodalangan noqulay ruhiy muhitga ega bo'lamiz. Agar, **S** 25 dan katta bo'lsa, demak, ruhiy muhit yaxshi. Agar, **S** 25 dan kichik bo'lsa-muhit barqarorligi o'zgaruvchan.

Ruhiy muhitni o'rtacha guruhli baholash quyidagi formula yordamida hisoblanadi: Muhitni salbiy baholaganlar foizi, quyidagicha topiladi:

$$S = - \frac{p(Sg)}{I} \times 100\%$$

Bu erda: p (Sg)-muhitni salbiy baholaganlar soni; I-guruh a'zolari soni.

? Test: Ekstravert – introvert - ambavert

SHvesariyalik olim Karl G. Yungning "Psixologik tillar" kitobida, birinchi marta, psixologik tavsiflash uchun "Ekstravert"(tashqariga yo'naltirilgan) va "intravert"(ichkariga yo'naltirilgan) tushuncha-laridan foydalanilgan.

Ekstravertlar muloqotlarni kengaytirishga, barcha imkoniyatlardan foydalanishga intilishadi. Intravertlar, yuqoridagilarga teskari tarzda, muloqotlarni cheklaydilar, atrofdagilardan yiroq bo'lishga intiladilar, ortiqcha sarflarga yul qo'ymaydilar, o'zlarini tiyadilar.

Siz ekstravertlar guruhiga mansubsiz, agar:

1. Bir kunning o'zida, bemalol ikkita kinofil'm, konsert, p'esa va hokazolarni ko'ra olsangiz, bir necha uchrashuvlar belgilab, bitta-ikkitasigagina ulgursangiz.
2. Sizni mijozlaringiz, tanishlaringiz kundan kunga ko'payib bormoqda.

3. Televizor, radiopriyomnik buzilib qolsa kayfiyatingiz unchalik buzilmaydi. Agar, telefon uzib qo'yilsa, siz o'zingizni yolg'iz, dunyodan uzib qo'yilgandek his qilasiz.
4. Qiyin formulalarga nisbatan, qiyofa va tarjimai hollardagi holatlarni tez esda saqlab qolasiz.
5. Davralarda ovqatlanish, xursandchilik qilishni yoqtirasiz. Yolg'iz-likdan qochasiz. Tund kayfiyatli odamlardan yiroq bo'lishga intilasiz, siz xushchaqchaq odamlar orasiga mansubsiz.
6. Latifalar, kulgili voqealar aytishni yoqtirasiz.
7. Boshqalar e'tiborini tortishni yoqtirasiz.
8. Qaerda, qachon nima qilish lozimligini bilasiz.
9. Tezda qaror qabul qila olasiz, ko'pincha o'zini oqlamasada tavakkalchilikka loyiqsiz.
10. Notanish odamlar bilan tezda muloqotga kirisha olasiz, ko'p o'zingizni urintirmasdan murakkab holatlardan chiqib keta olasiz.
11. Har bir vaziyatda, sharoitdan kelib chiqib, ish tutasiz.
12. Sizning doimo rejalashtirib qo'ygan ishlaringiz, g'oyalaringiz, bisyor, biroq, ularning bir qisminigina bajara olasiz.
13. Sog'lig'idan doimo shikoyat qiluvchilarni siz tushunmaysiz va ularga hamdardlik bildirmaysiz.
1. Sizni atrofdagilarda qanday ta'surot qoldirganlingiz qiziqtiradi.

Siz intravertlar guruhiga mansubsiz, agar:

1. Hatto, oddiy voqea-xodisa ham, siz uchun muhim qarorni qabul qilishdan tiyilish uchun etarli.
2. Ba'zan bitta tomosha, konsert sizga bir oy uchun etarli.
3. Ko'pincha xotirlashga berilasiz.
4. Sizning do'stlaringiz ham, siz ham, odamlarga qiyinchilik bilan yaqinlashasiz.
5. Siz to'liq tavfsilotdan ko'ra, asosiy mazmunni yaxshi eslab qolasiz.
6. To'liq ma'lumotlar hajmidan ko'ra, bir qolipga solingan axborotlar bilan ishlashni ma'qul ko'rasiz.
7. Siz g'alag'ovur, baland musiqani yoqtirmaysiz.
8. Sizning buyumlaringiz ko'p emas, biroq ular siz bilan bir butun yaxlitlikni tashkil etadi.
9. Siz rasmga tushishni yoqtirasiz.
10. Yolg'iz ovqatlanishni ma'qul ko'rasiz. Notanish davralarga qo'shilmaysiz. Uy sharoitida o'zingizni bir muncha erkin his qilasiz.
11. Yangi sharoit, holat, jamoga moslashishingiz qiyin kechadi.
12. Siz qat'iyatli odamsiz va o'z tamoyillaringizga qat'iy rioya etishga intilasiz.
13. O'z sog'ligingizga doimo e'tiborlisiz. Kasallikni oldini olgan ma'qul deb hisoblaysiz.
14. Ba'zan, sizga beparvo bo'lishni maslahat berishadi, biroq siz unday deb hisoblamaysiz.

Ijobiy javoblaringizni jamlab, siz o'zingizning qaysi psixologik tipga mansub ekanligingizni aniqlab olishingiz mumkin.

Agar “ekstra” va “intra” belgilari teng bo’lib qolsa, siz unda ko’pchilik odamlar mansub bo’lgan, ambavert tipiga moyilsiz.

Makroiqtisodiyotdan testlar to’plami

1 Shaxsiy daromad bu-

- a) Bir yilda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati;
- b) Uy xo’jaligining bir yilda olgan daromadi;
- v) Soliq to’langandan keyingi shaxsiy xarajatlar uchun mo’ljallangan jami daromad;
- g) Ushbu mamlakatda joylashgan xususiy manbalardan yig’ilgan jamg’arma miqdori;
- d) YaMMdan amortizasiyani chegirish.

2 Quyida sanab o’tilganlarning qaysi biri YaMM tarkibiga kiradi

- a) Uy bekasining xizmati;
- b) Qo’shnisidan foydalanilgan avtomobilni sotib olish;
- v) Brokerdan yangi aksiyalarni sotib olish;
- g) Mahalliy kitob do’konidagi yangi darsliklarning qiymati;
- d) Korporasiyadan obligasiyalarni sotib olish.

3 Kapital iste’moliga ajratmalar bu-

- a) Sof investisiyalar;
- b) Sof chet el investisiyalari;
- v) Amortizasiya;
- g) Iste’mol tovarlarini xarid qilish uchun ishlatilishi mumkin bo’lmagan jamg’armalar;
- d) Egri yo’llar bilan shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo’ljallangan mablag’lar.

4 Agar milliy daromaddan korporasiya foydasiga soliqni, taqsimlanmaydigan foydani va ijtimoiy sugo’rtaga to’lovlarni chegirsak, so’ngra sof transfert to’lovlarini qo’shsak, hosil bo’lgan miqdor bu-

- a) Shaxsiy daromad;
- b) Amortizasiya;
- v) YaMM;
- g) Sof milliy mahsulot;
- d) Ixtiyordagi daromad.

5 Transfert to’lovlari bu-

- a) Uy xo’jaliklariga to’lanadigan va ular tomonidan evaziga tovar va xizmatlar taqdim etish ko’zda tutilmagan to’lovlar;
- b) Faqat hukumat tomonidan alohida shaxslarga to’lanadigan to’lovlar;
- v) Daromadning milliy daromadga kirmaydigan qismi;
- g) A,B,V;
- d) Hamma javoblar noto’g’ri.

6 Ixtiyordagi daromad bu -

- a) Shaxsiy daromaddan yakka tartibdagi soliqlar va soliqdan tashqari to'lovlarni ayirish;
- b) Ish haqi, xizmat haqi, ijara haqi va kapitalga foiz shaklidagi daromadni o'z ichiga oluvchi miqdor;
- v) Ish haqi va xizmat haqi, kapitalga foiz shaklidagi daromaddan shaxsiy daromadga soliq miqdorining ayirmasi;
- g) A,B,V;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

7 YaMM va SMMni aniqlashda takroriy hisob quyidagilarni qo'shganda sodir bo'ladi:

- a) Po'lat eritish va qazib olish sanoatida;
- b) Tegirmon va nlnvoylik sanoatida zahiralar o'sishini;
- v) Temir rudasi va po'lat ishlab chiqarishni;
- g) Nonvoylik sanoati va uning savdo shoxobchasida yaratilgan qo'shilgan qiymatni;
- d) Sotib olingan istemol tovarlari va ishlab chiqarish vositalarining umumiy hajmini.

8 Milliy daromad hajmini aniqlashda sanab o'tilgan ko'rsatkichlardan qaysilari ishlatilmaydi:

- a) Korporasiya foydasi;
- b) Davlat transfert to'lovlari;
- v) Tadbirkorlarning kreditga olgan kapitali uchun to'laydigan foizlari;
- g) Ijaradan olingan daromad;
- d) Ish haqi va xizmat haqi.

9 YaMMni ishlab chiqarishda davlat sektorining hissasini aniqlash uchun nima zarur?

- a) Tovar va xizmatlarni sotib olishga ketgan davlat xarajatlari hajmini hisoblash;
- b) Xizmatlar jumlasiga kirmaydigan tovarlarga ketgan davlat sarflari miqdorini aniqlash;
- v) Oraliq tovarlarga davlat sarflarini chiqarib tashlagan holda, faqat yakuniy mahsulot sotib olish bilan bog'liq davlat xarajatlarini hisobga olish;
- g) Davlatning faqat iste'mol tovarlariga xarajatlarni hisobga olish;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

10 YaMM va SMM milliy hisoblarida "investisiya" tushunchasi nimani bildiradi?

- a) Davlat korxonasida ishlab chiqarilgan har qanday mahsulot;
- b) Har qanday aksiyani sotib olish;
- v) Yil oxiriga zahiralar o'sishi;
- g) Iste'molchi tomonidan sotib olingan, lekin yil oxirigacha to'liq istemol qilinmagan har qanday tovar;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

11 Ishchilar yaratgan qo'shilgan qiymat yig'indisi bo'yicha hisoblagan yaratilgan YaMM dagi firmaning hissasini hisoblash uchun yaratilgan mahsulotning bozor qiymatidan nimani chegirib tashlash zarur?

- a) Davlatga to'lanadigan barcha bilvosita soliqlarni;
- b) Taqsimlanmagan foydani;
- v) Amortizasiyani;
- g) Boshqa firmalarga sotish hajmini;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

12 Narxlar indeksi nima uchun ishlatiladi?

- a) Joriy va o'tgan yildagi ishlab chiqarish tarkibidagi farqni baholash uchun;
- b) Ikki turli davrdagi "tovar savati" ning bozor qiymatidagi farqni baholash uchun;
- v) Ikki turli mamlakat narx darajalaridagi farqni baholash uchun;
- g) Ulgurji va chakana narx darajalari o'rtasidagi farqni baholash uchun;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

13 Agar Real YaMM 6% ga kamaysa, aholi soni esa xuddi shu yili 3% ga qisqarsa, unda:

- a) Aholi jon boshiga Real YaMM pasayadi;
- b) Aholi jon boshiga Real YaMM ko'payadi;
- v) Real YaMM oshadi, nominal YaMM esa pasayadi;
- g) Nominal YaMM o'zgarmaydi;
- d) Narxlar 3% ga pasayadi.

14 Milliy daromad bu:

- a) $C+I+G$ – transfert to'lovlari + bilvosita soliqlar;
- b) Investisiyalar – jamg'armalar;
- v) Uzoq muddatli foydalanadigan buyumlar va xizmatlar qiymati;
- g) Shaxsiy daromad + yakka tartibdagi soliqlar – davlat korxonalariga sof subsidiyalar;
- d) Ijara haqi, ish haqi, kapitalga foiz, mulkdan olingan daromad va korporasiya foydasi.

15 Xarajatlar yigindisi bo'yicha hisoblangan YaMM ga quyidagi ko'rsatkichlardan qaysi biri kiritilmaydi:

- a) Yalpi investisiyalar;
- b) $C+I+G$ (C-iste'mol xarajati, I- investisiyalar, G-davlat xarajatlari);
- v) Tovar va xizmatlarning sof eksporti;
- g) Tovar va xizmatlarning davlat xaridi;
- d) Ish haqi va xizmat haqi.

16 YAlpi xususiy investisiyalar quyidagini hisoblashda hisobga olinadi:

- a) Daromadlar oqimi usuli bo'yicha YaMMni;
- b) Xarajatlar oqimi usuli bo'yicha YaMMni;
- v) Xarajatlar oqimi usuli bo'yicha SMMni;
- g) O'z ixtiyoridagi daromadni;
- d) Shaxsiy daromadni.

17 Ish haqi quyidagi holda hisobga olinadi:

- a) Daromadlar usuli oqimi bo'yicha YaMM ni hisoblashda;
- b) Xarajatlar oqimi usuli bo'yicha YaMM ni hisoblashda;
- v) Sof eksportni hisoblashda;
- g) Davlat korxonalariga sof subsidiyalarni hisoblashda;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

18 Faraz qilamiz YaMM 500 mlrd. dollardan 600 mlrd. dollargacha, YaMMning deflyatori esa 125 dan 150 gacha oshdi. Shunday sharoitda Real YaMM quyidagicha bo'ladi:

- a) O'zgarmaydi;
- b) Ko'payadi;
- v) Kamayadi;
- g) Mavjud ma'lumotlar asosida hisoblash mumkin emas;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

19 Agar nominal YaMM va narxlar darajasi kursatilsa, unda:

- a) Real YaMM o'zgarmaydi;
- b) Real YaMM narxlar darajasiga nisbatan kamrok ko'payadi;
- v) Real YaMM qisqaradi;
- g) Bu axborot real YaMM o'zgarishini aniqlashga imkon bermaydi;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

20 Milliy daromad va milliy mahsulotni hisoblashda quyidagilarni qo'shish mumkin emas:

- a) Iste'mol xarajatlari va shaxsiy jamg'arma;
- b) Sof investisiyalar va iste'mol xarajatlari;
- v) Korporasiya foydasi va tadbirkorlarning kredit uchun foiz to'lovlari;
- g) Hukumat xaridlari, ish haqi va xizmat haqi;
- d) Iste'mol xarajatlari va yalpi investisiyalar.

21 Yaqin orada yana ishga joylashishga umid qilayotgan odam:

- a) Bandlar guruhiga kiradi;
- b) Ishsizlar guruhiga kiradi;
- v) Ishchi kuchi tarkibida hisobga olinmaydi;
- g) To'la band bo'lmagan sifatida qaraladi;
- d) Ish topishdan umidini uzgan sifatida qaraladi.

23 Majburiy ishsizlikning mavjudligi:

- a) Talab ortiqchaligi sharoitida mexnat bozorida ish haqi o'smasligi haqidagi Keynes taxminlari bilan tushuntiriladi;
- b) Mehnat bozorida talab ortiqchaligi sharoitida ish haqi pasaymasligi haqidagi Keynes taxminlari bilan tushuntiriladi;
- v) Hattoki klassik maktab iqtisodchilari tomonidan tan olinadi;
- g) Ishsizlikning umumiy darajasida sezilarli ahamiyatga ega emas;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

24 Iqtisodiyotdagi pasayish tufayli ishini yo'qotganlar ishsizlikning qaysi ko'rinishiga mansub?

- A) Ishsizlikning friksion ko'rinishiga;
- B) Ishsizlikning tarkibiy ko'rinishiga;

- V) Ishsizlikning davriy ko'rinishiga;
- G) Uzluksiz ishsizlikka;
- D) Hamma javoblar noto'g'ri.

25 O'z xohishi bilan ishdan bo'shagan ishchi, agar u ishchi kuchi tarkibiga kirsa-yu, lekin hali ish topa olmagan bo'lsa, 24-testdagi qaysi javob to'g'ri?

26 J.M.Keyns fikricha:

- a) Hukumat ishsizlikni pasaytirish uchun davlat xaridi va soliqlardan foydalanishi kerak;
- b) Bozor tizimida qisqa muddatda yuqori bandlik darajasini mustaqil ta'minlashga qodir mexanizm mavjud;
- v) Iqtisodiyot markazlashgan rejalashtirish asosida rivojlanishi kerak;
- g) Xususiy mulkchilikni yo'qotish zarur;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

27 To'la bandlik sharoitida friksion ishsizlik darajasi kanday bo'lishi kerak?

- A) 0 ga teng;
- B) 1% dan kam;
- V) Ishsizlikning davriy ko'rinishi darajasidan kam;
- G) Hamma javoblar to'g'ri;
- D) Hamma javoblar noto'g'ri.

28 Etarli bo'lmagan yalpi talab nimaga olib keladi?

- A) Friksion ishsizlikning oshishiga;
- B) Tarkibiy ishsizlikning oshishiga;
- V) Davriy ishsizlikning oshishiga;
- G) Yashirin ishsizlikning oshishiga;
- D) Hamma javoblar noto'g'ri.

29 Oukun qonuniga ko'ra, ishsizlikning haqiqiy darajasining uning tabiiy darajasidan 2% ga ortiqligi YaMM haqiqiy darajasining uning potensial darajasidan orqada qolganini bildiradi. Bu orqada qolish necha foizga teng?

- a) 2%ga; b) 3%ga; v) 4%ga; g) 5%ga; d) 5%dan ancha ortiq.

30 Ko'pchilik iqtisodchilarning fikriga ko'ra, qisqa muddatli davrda bandlik darajasi va milliy ishlab chiqarish hajmi nima bilan belgilanadi?

- a) Narxlar darajasi;
- b) Mavjud ishchi kuchining soni;
- v) Milliy kapital zahiralar;
- g) Yalpi xarajatlar darajasi;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

31 Agar nominal daromad 8%ga oshsa, narxlar darajasi esa 10%ga oshsa, unda real daromad :

- a) 2%ga oshadi;
- b) 18%ga oshadi;
- v) 2%ga pasayadi;
- g) 18%ga pasayadi;
- d) avvalgi holicha qoladi.

32 Kutilmagan inflyasiyadan kimlar hammadan ham kam ozor chekadi?

- a) Qayd etilgan nominal daromad oluvchilar;
- b) Kimning nominal daromadi narxlar darajasi ko'tarilishiga nisbatan sekinroq o'ssa;

- v) Pul jamg'armasiga ega bo'lganlar;
- g) Narxlar pastligida qarzidor bo'lib qolganlar;
- d) «b» vva «g» javoblar to'g'ri.

33 Quyidagilarning qaysi biri ishlab chiqarish xarajatlari bilan bog'liq inflyasiyaga aloqador emas:

- a) Bandlik va ishlab chiqarishning o'sishi;
- b) Mahsulot birligiga xarajatlar qiymatining o'sishi;
- v) Ish haqining o'sishi;
- g) Taklifdagi favqulodda o'zgarishlar;
- d) Foiz stavkasining o'sishi.

34 Jami xarajatlarning o'sishi inflyasiyaga olib keladi, agar:

- a) Iqtisodiyot to'la bandlik sharoitida rivojlansa;
- b) Haqiqiy va potensial YaMM hajmi teng bo'lsa;
- v) Ishchi kuchi soni o'smasa;
- g) Faqat «a» va «b» javoblar to'g'ri;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

35 Jadallashayotgan inflyasiya davrida foiz stavkasi:

- a) Pasayadi, chunki pul narxi pasayadi;
- b) Pasayadi, chunki bandlik darajasi pasayadi;
- v) Ko'tariladi, chunki pul narxi pasayadi;
- g) Ko'tariladi, chunki bandlik darajasi pasayadi;
- d) O'zgarmaydi.

36 Inflyasiya bog'liq bo'lishi mumkin:

- a) Faqat YaMMning o'sishi bilan;
- b) Uning rivojlanish manbaiga bog'liq ravishda YaMMning o'sishi yoki pasayishi bilan;
- v) Faqat YaMMning pasayishi bilan;
- g) YaMMning o'sishi bilan, agar iqtisodiyot to'la bandlik sharoitida rivojlanayotgan bo'lsa;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

37 Kutilmagan inflyasiyaning ortgan xavfiga javoban quyidagi harakatlar yuzaga keladi:

- a) Berilgan qarzlarning xavf - xatari uchun banklar tomonidan mukofot belgilash;
- b) Qat'iy daromad olgan shaxslarga transfert to'lovlarining indeksasiyasini hukumat tomonidan amalga oshirishga urinishlar;
- v) Banklar tomonidan kuchmas mulk xaridorlariga garov xatlarini o'zgargan foiz stavkalari bo'yicha sotishga urinish;
- g) Jismoniy shaxslarning o'z pullarini inflyasiya davrida qadrsizlanmaydigan aktivlarga qo'yishga urinishlar;
- d) Hamma javoblar to'g'ri.

38 Kutilmagan inflyasiya odatda quyidagilar bilan birgalikda kuzatiladi:

- a) Iqtisodiy zararning yo'qligi bilan;
- b) Iqtisodiyotda samaradorlikning pasayishi bilan;
- v) Boylik va daromadning kayta taqsimlanishi bilan;
- g) Faqat «b» va «g» javoblar to'g'ri;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

39 Quyidagi harakatlarning qaysi biri shaxs uchun kutilmagan inflyasiya xavfidan o'zini himoya qilish vositasi bo'la oladi:

- a) Mehnat shartnomasiga o'zok muddatli davrda ish haqini indeksasiya qilishni ko'zda tutuvchi moddani kiritish;
- b) Garov xatlar bo'yicha inflyasiyani oshiruvchi foiz stavkalari miqdorini indeksasiya qilish;
- v) Do'stiga bank foiz stavkasidan past stavkalarda qarz taklif qilish;
- g) Bankdan olingan kredit asosida yangi biznes ochish;
- d) Hamma javoblar to'g'ri.

40 Quyidagi tushunchalardan qaysi biri ishchanlik davri bosqichlariga kirmaydi:

- a) Inflyasiya; b) Resessiya; v) Pasayish; g) Yuksalish;
- d) Jonlanish.

41 Jami talab egri chizig'ining o'ngga siljishi quyidagilardan qaysi birini aks ettira olmaydi:

- a) Narxlar darajasi va YaMM real hajmining bir vaqtda oshishini;
- b) YaMM real hajmida o'sish yo'qligida narxlar darajasining ko'tarilishini;
- v) Narx oshishi yo'qligida YaMM real hajmining o'sishi;
- g) Bir vaqtda narxlar darajasining oshishi va YaMM real hajmining pasayishini;
- d) Barcha javoblar noto'g'ri.

42 Jami talab egri chizig'ining chapga va o'nga siljishi natijalari bir xil bo'ladi, agar:

- a) Bu siljish jami taklif egri chizig'ining yotiq (gorizontal) kesimida yuz bersa;
- b) Bu siljish jami taklif egri chizig'ining tik (vertikal) kesimida yuz bersa;
- v) Bu siljish jami taklif egri chizig'ining oraliq kesimida yuz bersa;
- g) Iqtisodiyot turg'unlikni boshidan kechirayotgan bo'lsa;
- d) Barcha javoblar noto'g'ri.

43 Agar narxlar darajasi o'sib, ishlab chiqarish esa pasaysa, unda buning sabablari quyidagilardan biri bilan belgilanadi:

- a) Jami talab egri chizig'ining o'ngga ko'chishi bilan;
- b) Jami talab egri chizig'ining chapga ko'chishi bilan;
- v) Jami taklif egri chizig'ining chapga ko'chishi bilan;
- g) Jami taklif egri chizig'ining o'ngga ko'chishi bilan;
- d) Barcha javoblar noto'g'ri.

44 Agar jami talab hajmi to'la bandlik sharoitida erishilgan YaMM darajasini ko'paytirsa, bu iqtisodiyotda quyidagilardan biri mavjudligini bildiradi:

- a) Moliyaviy cheklashlar;

- b) Inflyasiya uzilishi;
- v) Deflyasiya uzilishi;
- g) Jami talab va jami taklif o'rtasida muvozanat;
- d) Byudjet taqchilligi.

45 Agar muvozanatli YaMM hajmi uning potensial darajasidan ko'proq bo'lsa, unda:

- a) Narxlar darajasi ko'tariladi;
- b) Ishsizlik darajasi ko'tariladi;
- v) Deflyasiya uzilishi paydo bo'ladi;
- g) Jami taklif behosdan ko'payadi;
- d) Jami talab behosdan ko'payadi.

46 Jami talab egri chizig'i quyidagilardan biri o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi:

- a) Narxlar darajasi bilan tovarlar hamda xizmatlar sotib olishga ketgan jami xarajatlar;
- b) Narxlar darajasi bilan real ifodadagi ishlab chiqarilgan YaMM;
- v) Xaridorlar tan oladigan narxlar darajasi bilan sotuvchilarni qoniqtiruvchi narx darajasi;
- g) Real ifodadagi ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan YaMM xajmlari;
- d) Barcha javoblar noto'g'ri.

47 Jami taklif egri chizig'ining keyns kesimi qanday ko'rinishga ega?

- a) O'suvchi qiymat ko'rinishiga;
- b) Pasayuvchi qiymat ko'rinishiga;
- v) Tik (vertikal) chiziq bilan aks ettirilgan;
- g) Yotiq (gorizontal) chiziq bilan berilgan;
- d) Barcha javoblar noto'g'ri.

48 Jami taklif egri chizig'ida oraliq kesim qanday ko'rinishga ega?

- a) O'suvchi qiymat ko'rinishiga;
- b) Pasayuvchi qiymat ko'rinishiga;
- v) Tik (vertikal) chiziq bilan aks ettirilgan;
- g) Yotiq (gorizontal) chiziq bilan berilgan;
- d) Barcha javoblar noto'g'ri.

49 Jami taklifning o'sishi nimaga olib keladi?

- a) Narxlar darajasi va YaMM real hajmining pasayishiga;
- b) Narxlar o'sishining sekinlashuvi va YaMM real hajmining ko'payishiga;
- v) Narxlar darajasi va real ifodadagi YaMM hajmining ko'tarilishiga;
- g) Narxlar o'sishining sekinlashuvi va YaMM real hajmining kamayishiga;
- d) Barcha javoblar noto'g'ri.

50 Agar narxlar o'ssa, unda:

- a) Qayd etilgan narxdagi qimmatli qog'oz egalari o'z xarajatlari ko'paytiradilar;
- b) Pulga bo'lgan talab va foiz stavkasi darajasi o'sadi;
- v) Foiz stavkasi o'zgarishiga ta'sirchan xarajatlar ko'payadi;
- g) Qayd etilgan narxdagi qimmatli qog'oz egalarining xarid qobiliyati ko'tariladi;

d) Barcha javoblar to'g'ri.

51 Agar ishlab chiqarilgan YaMMning real hajmi muvozanatli YaMMdan kam bo'lsa, unda ishlab chiqaruvchilar:

- a) Ishlab chiqarish zahiralarini qisqartiradi va ishlab chiqarishni kengaytiradi;
- b) Ishlab chiqarish zahiralarini ko'paytiradi va ishlab chiqarishni kengaytiradi;
- v) Ishlab chiqarish zahiralarini ham, ishlab chiqarishni ham qisqartiradi;
- g) Ishlab chiqarish zahiralarin ko'paytiradi va ishlab chiqarishni qisqartiradi;
- d) Barcha javoblar noto'g'ri.

52 Iqtisodiyotdagi vaziyat jami taklif egri chizig'ining keyns kesimiga mos kelganda, jami talabning o'sishi nimaga olib keladi?

- a) Narxlar oshishiga, t biroq real ifodadagi YaMM o'zgarishiga ta'sir ko'rsatmaydi;
- b) Real ifodadagi YaMM hajmining ko'payishiga, biroq narxlar darajasiga ta'sir ko'rsatmaydi;
- v) Ham narxlar darajasi, ham real ifodadagi YaMM hajmining oshishiga;
- g) Narxlar oshishiga va real ifodadagi YaMM hajmining qisqarishiga;
- d) Narxlar pasayishiga va real ifodadagi YaMM hajmining o'sishiga,

53 Jami talab egri chizig'i ko'tariladi, agar:

- a) Narxlar darajasi pasaysa;
- b) Narxlar darajasi o'ssa;
- v) Ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari ko'paysa;
- g) Milliy pul birligining valyuta kursi pasaysa;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

54 Agar import tovarlar narxlari ko'tarilsa, bu holning ehtimolga yaqin sababi:

- a) Jami taklifning qisqarishi;
- b) Jami taklifning o'sishi;
- v) Jami talabning o'sishi;
- g) Jami talabning pasayishi;
- d) Barcha javoblar noto'g'ri.

55 Agar tadbirkorlik soliqlari o'ssa, unda:

- a) Jami talab qisqaradi, jami taklif hajmi esa o'zgarmaydi;
- b) Jami taklif qisqaradi, jami talab esa o'zgarmaydi;
- v) Jami taklif va jami talab qisqaradi;
- g) Jami taklif va jami talab o'sadi;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

56 Jami talab egri chizig'ining pasayishi:

- a) Real kassa qoldiqlari samarasining natijasi;
- b) Foiz stavkasi samarasining natijasi;
- v) Import xaridlari samarasining natijasi;
- g) Barcha javoblar to'g'ri;
- d) barcha javoblar noto'g'ri.

57 Jami taklif egri chizig'i quyidagilardan biri o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi:

- a) Narxlar darajasi va real ifodadagi iste'mol qilinadigan YaMM hajmi;
- b) Narxlar darajasi va real ifodadagi ishlab chiqarilgan YaMM hajmi;
- v) Ishlab chiqaruvchilar sotishni, xaridorlar esa sotib olishni xohlagan narxlar darajasi;

g) Iste'mol qilingan va ishlab chiqarilgan YaMM hajmi;

d) Barcha javoblar noto'g'ri.

58 Aksiyalar real qiymatining boshqa narxlar darajasidan qat'iy nazar keskin pasayishi nimaga eng yaxshi misol bo'lishi mumkin?

a) Import xaridlarining samarasiga;

b) Real kassa qoldiqlarining samarasiga;

v) Iste'molchilar farovonligining o'zgarishiga;

g) Iste'molchi qarzlarining o'zgarishiga;

d) Barcha javoblar to'g'ri.

59 Agar davlat atrof-muhitni saqlash talablarini kuchaytirs, bu nimaga olib keladi?

a) Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi va jami taklif egri chizig'ining o'ngga ko'chishiga;

b) Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi va jami taklif egri chizig'ining chapga ko'chishiga;

v) Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi va jami talab egri chizig'ining chapga ko'chishiga;

g) Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi va jami talab egri chizig'ining chapga ko'chishiga;

d) Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi va jami talab egri chizig'ining o'ngga ko'chishiga.

60 Iste'molga bo'lgan me'yoriy moyillik – bu:

a) Jami iste'molning jami daromadga nisbati;

b) Daromad o'zgarishi oqibatida iste'mol xarajatlaridagi o'zgarishlar;

v) Daromadning berilgan darajasida iste'mol xarajatlari miqdorini ifodalovchi egri chiziq;

g) Iste'mol xarajatlari o'sishining ixtiyordagi daromad o'sishi birligiga nisbati;

d) Barcha javoblar noto'g'ri.

61 Iste'molga va jamg'armaga bo'lgan me'yoriy moyillik o'rtasidagi bog'liqlik quyidagida o'z ifodasini topadi:

a) Ularning yig'indisi 1 ga teng;

b) Ular o'rtasidagi nisbat iste'molga bo'lgan o'rtacha moyillikni ifodalaydi;

v) Ularning yig'indisi ixtiyordagi daromadga teng, chunki u iste'mol va jamg'armaga bo'linadi;

g) Ular teng bo'lgan egri chiziqdagi nuqta daromadning chegaraviy (boshlang'ich) darajasiga mos keladi;

d) Ularning yig'indisi 0ga teng.

62 Agar kishilar o'z daromadlarining barchasini iste'molga sarflamay, xarajat qilinmagan qismini bankka joylashtirs, unda (daromad va

mahsulotning milliy hisobi atamasini qo'llab) ularning bu ishlari haqida nima deyish mumkin:

- a) Jamg'aradilar, biroq investisiya qilmaydilar;
- b) Investisiya qiladilar, biroq jamg'armaydilar;
- v) Jamg'armaydilar va investisiya qilmaydilar;
- g) Ham jamg'aradilar ham investisiya qiladilar;
- d) Jamg'aradilar, biroq qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun foydalaniladigan jamg'arma qismini investisiya qiladilar.

63 «Yakka tartibdagi jamg'armalar» milliy hisoblar tizimida qo'llanuvchi atama sifatida nimani anglatadi?

- a) Oila barcha aktivlarining umumiy miqdori;
- b) Qandaydir davrda olingan va iste'molga ishlatilmagan daromad;
- v) Oilaning uning majburiyatlari chegirib tashlangandan keyin qolgan barcha aktivlarining umumiy miqdori;
- g) Ma'lum davrda olingan va faqat qimmatli qog'ozlar sotib olishga ishlatilgan yoki bankka joylashtirilgan daromad;
- d) Qandaydir davrda olingan, iste'mol uchun ham, qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun ham ishlatilmagan, shuningdek bankka ham joylashtirilmagan daromad.

64 Yakka tartibdagi iste'mol funksiyasining «boshlang'ich darajasi» nuqtasida:

- a) Jamg'arma daromadga teng;
- b) Daromad iste'molga teng;
- v) Jamg'arma iste'molga teng;
- g) Iste'mol investisiyalarga teng;
- d) Iste'molga bo'lgan me'yoriy moyillik 1 ga teng.

65 Sanab o'tilganlardan qaysi biri milliy hisoblar tizimidagi «investisiyalar» tushunchasiga taalluqli:

- a) Har qanday obligasiya sotib olish;
- b) Jamg'armaga yo'naltirilmagan jamg'arilgan daromadning har qanday miqdori;
- v) Har qanday aksiya sotib olish;
- g) Barcha javoblar noto'g'ri;
- d) «a»,»b» va «v» javoblar to'g'ri.

66 J.Keyns ta'kidlashicha, mamlakatdagi iste'mol xarajatlarining hajmi nimaga bog'liq?

- a) Iste'molchining yashash joyiga;
- b) Oila a'zolarining yoshiga;
- v) Pul taklifining o'sish sur'atiga;
- g) Milliy daromad darajasiga;
- d) Ixtiyordagi daromad darajasiga.

67 Quyidagi bog'liqliklardan qaysi biri teskari bog'liqlikni ifodalaydi?

- a) Iste'mol xarajatlari va ixtiyordagi daromad o'rtasidagi bog'liqlik;
- b) Investisiya xarajatlari va foiz stavkasi darajasi o'rtasidagi bog'liqlik;
- v) Jamg'armalar va iste'mol stavkasi darajasi o'rtasidagi bog'liqlik;
- g) Investisiya xarajatlari va milliy daromad o'rtasidagi bog'liqlik;

d) Barcha javoblar noto'g'ri.

68 Agar ixtiyordagi daromad hajmi kamayayotgan bo'lsa, unda boshqa teng shartlarda:

- a) Iste'mol xarajatlari ham, jamg'armalar ham o'sadi;
- b) Iste'mol xarajatlari o'sadi, jamg'armalar esa qisqaradi;
- v) Iste'mol xarajatlari qisqaradi, jamg'armalar esa o'sadi;
- g) Iste'mol xarajatlari ham, jamg'armalar ham qisqaradi;
- d) Barcha javoblar noto'g'ri.

69 Agar berilgan mamlakatda ixtiyordagi daromad hajmi ko'paysa, unda:

- a) Iste'molga va jamg'armaga bo'lgan o'rtacha moyillik o'sadi;
- b) Iste'molga bo'lgan o'rtacha moyillik o'sadi, jamg'armaga bo'lgani esa pasayadi;
- v) Iste'molga bo'lgan o'rtacha moyillik pasayadi, jamg'armaga bo'lgani esa o'sadi;
- g) Iste'molga va jamg'armaga bo'lgan o'rtacha moyillik pasayadi;
- d) Barcha javoblar noto'g'ri.

70 Quyidagi bog'liqliklardan qaysi biri to'g'ri bog'liqlikni ifodalaydi?

- a) Iste'mol xarajatlari va ixtiyordagi daromad o'rtasidagi bog'liqlik;
- b) Jamg'armalar va ixtiyordagi daromad o'rtasidagi bog'liqlik;
- v) Jamg'armalar va foiz stavkasi darajasi o'rtasidagi bog'liqlik;
- g) Iste'mol xarajatlari va aholi soni o'rtasidagi bog'liqlik;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

71 Investisiyalar hajmiga quyidagilardan qaysi biri ta'sir ko'rsatadi:

- a) Foiz stavkasi darajasi;
- b) Tadbirkorlarning umid bilan yoki umidsiz kutishlari;
- v) Texnologik o'zgarishlar darajasi;
- g) Ishlab chiqarish usunalarining yuklanganlik darajasi;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

72 Quyidagilardan qaysi biri bog'liq bo'lmagan xarajatlar o'sishini aks ettiradi?

- a) Iste'mol funksiyasi egri chizig'ining yuqoriga siljishi;
- b) SMM ko'payishiga qarab investisiyalarning o'sishi;
- v) Iste'mol funksiyasi egri chizig'i bo'ylab yuqoriga harakat;
- g) Iste'mol funksiyasi egri chizig'i bo'ylab pastga harakat;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

73 Ixtiyordagi daromadning berilgan darajasida jamg'armaga va iste'molga bo'lgan me'yoriy moyillik miqdorlarining yig'indisi:

- a) 0ga teng; b) 1ga teng; v) 100ga teng; g) 1000ga teng; d) 10000ga teng.

74 Agar real foiz stavkasi ko'paysa, unda:

- a) Investisiyalarga bo'lgan talab egri chizig'i o'ngga siljiydi;
- b) Investisiyalarga bo'lgan talab egri chizig'i chapga siljiydi;
- v) Investisiyalarga bo'lgan talab egri chizig'i yuqoriga ko'chadi;
- g) Investisiya xarajatlari qisqaradi;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

75 Keynes nazariyasining klassik nazariyadan ustun kelishiga imkon bergan asosiy sabab:

- a) Keynes nazariyasi iqtisodiyotning uzoq davrdagi hatti - harakatini izohlab berganida;
- b) Keynes nazariyasi iqtisodiyotning qisqa davrdagi hatti - harakatini izohlab berganida;
- v) Klassik nazariya iqtisodiyotning qisqa davrdagi hatti - harakatini izohlab bera olmaganida;
- g) Keynes nazariyasi o'zining asosiy qoidalarin mamlakatda muomalada bo'lgan pullar miqdori bilan bog'lamaganida;
- d) «b» va «v» javoblar to'g'ri.

76 Sey qonuni quyidagilar o'rtasidagi bog'liqlikni qayd etadi:

- a) Quyoshdagi dog'lar, ob - havo sharoitlari va agrar (qishloq xo'jaligi) sohasidagi ishlab chiqarish hajmi;
- b) Pullarga talab va uning taklifi;
- v) Jamg'armalar, investisiyalar va foiz darajasi;
- g) Kredit, ishlab chiqarish va mehnat bozori;
- d) Ishlab chiqarish, daromad va xarajatlar.

77 O'zini tartibga soluvchi bozor tizimi nimani kafolatlaydi:

- a) Tovarlar taqchilligi yo'qligini;
- b) Tovarlar ortiqchaligi bo'lishi mumkin emasligini;
- v) Tez - tez paydo bo'ladigan barqaror va uzoq muddatli tovarlar taqchilligi mumkinligini;
- g) Narxlar mexanizmi ta'siri natijasida tovarlar miqdorining tez yo'qoluvchi taqchilliklari va ortiqchaligini;
- d) «a» va «b» javoblar to'g'ri.

78 Mehnatga talab:

- a) Ish xaqi darajasi bilan bevosita bog'liq;
- b) Ushbu mehnat tufayli ishlab chiqarilgan mahsulot taklifi bilan bevosita bog'liq;
- v) Mashinalar va asbob - uskunalar talab bilan belgilanadi;
- g) Ushbu mehnat tufayli ishlab chiqarilgan mahsulotga bo'lgan talab bilan belgilanadi;
- d) «a» va «g» javoblar to'g'ri.

79 Agar insonlar kamroq tejamkor bo'lib borsalar, unda boshqa teng shartlarda:

- a) Kreditga talab o'sadi;
- b) Kredit narxi pasayadi;
- v) Jamg'armalar egri chizig'i chapga suriladi;
- g) Jamg'armalar miqdori foiz stavkasining har bir berilgan darajasida o'sib boradi;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

80 To'la bandlik sharoitidagi va barcha resurslardan to'la foydalanilgandagi ishlab chiqarish darajasi naqd pul miqdori va narxlar darajasiga bog'liq emas, degan g'oya qaysi nazariyaga tegishli:

- a) Keyns nazariyasiga;
- b) Marks nazariyasiga;
- v) Pulning miqdoriy nazariyasiga;
- g) Sey qonuniga;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

81 J.M.Keyns klassik makroiqtisodiy nazariyaning quyida sanab o'tilgan konsepsiyalaridan qaysi birini tanqid qilgan?

- a) Sey qonuni;
- b) Pulning miqdoriy nazariyasi;
- v) Iqtisodiyotning bozor orqali o'zini tartibga solish nazariyasi;
- g) Barcha javoblar to'g'ri;
- d) faqat «a» va «v» javoblar to'g'ri.

82 J.M.Keyns nazariyasiga muvofiq, jamg'armalar investisiyalardan ortiq bo'lishi mumkin, agar:

- a) Foiz stavkasi darajasi o'ssa;
- b) Uzoq vaqt davomida iqtisodiyotda ortiqcha qayta ishlab chiqarish va ishsizlik mavjud bo'lsa;
- v) Sey qonuni amal qilsa;
- g) Ushbu iqtisodiyotda ortiqcha qayta ishlab chiqarish va ishsizlik mumkin emas;
- d) «b» va «v» javoblar to'g'ri.

83 Keynsning iste'mol xarajatlari nazariyasiga ko'ra:

- a) Iste'mol xarajatlari ixtiyordagi daromadga bevosita bog'liqdir;
- b) Agar ixtiyordagi daromad o'ssa, iste'mol xarajatlari pasayadi;
- v) Agar ixtiyordagi daromad o'ssa, unda uning iste'molga yo'nal-tirilgan ulushi pasayadi;
- g) Barcha javoblar to'g'ri;
- d) Faqat «a» va «v» javoblar to'g'ri.

84 Ixtiyordagi daromad miqdori o'zgarishi bilan iste'mol xarajatlari hajmi ham o'zgaradi, lekin kamroq darajada, degan g'oya quyidagilardan birining tarkibiy qismidir:

- a) Keynsning investisiyalar nazariyasi;
- b) Keynsning bandlik nazariyasi;
- v) Klassik makroiqtisodiy nazariya;
- g) Pulning miqdoriy nazariyasi;
- d) Keynsning iste'mol nazariyasi.

85 Keyns nazariyasiga ko'ra ishlab chiqarish darajasi jami talab hajmi bilan belgilanadi. Bu quyidagini anglatadi:

- a) Daromadni ishlab chiqarish bu daromadga talabni yaratadi;
- b) Pulga bo'lgan talab tadbirkorlarni tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga majbur qiladi;

v) Tadbirkorlar ishlab chiqarishni to'la bandlik darajasigacha kengaytirishga urinadilar;

g) Tadbirkorlar ishlab chiqarishga qaror qiladigan mahsulot hajmi unga bildiriladigan talab bilan aniqlanadi;

d) Faqat «a» va «v» javoblar to'g'ri.

86 Keyns muvozanat modeliga muvofiq, iqtisodiyot muvozanatda bo'ladi, agar:

a) Iste'mol xarajatlari yig'indisidan jamg'armalarning ayirmasi investisiyalarga teng bo'lsa;

b) Ma'lum davr davomida pul taklifi o'zgarishi doimiy bo'lsa;

v) Rejalashtirilgan iste'mol xarajatlari bilan investisiyalar yig'indisi umumiy «chiqimlar» ga teng bo'lsa;

g) Davlat byudjeti balanslashgan bo'lsa;

d) Jami taklif jami talabga teng bo'lsa.

87 «Tejamkorlik paradoksi» ga muvofiq, daromadning har bir darajasida jamg'arish istagi quyidagiga sabab bo'ladi:

a) Iste'mol egri chizig'i pastga siljiydi;

b) Milliy daromad va ishlab chiqarishning muvozanatli darajasi pasayadi;

v) Jamg'arma egri chizig'i yuqoriga siljiydi;

g) Jamg'arayotgan kishilar soni o'sadi;

d) Faqat «a», «b» va «v» javoblar to'g'ri.

88 J.M.Keynsning oddiy modelida, agar jami taklif jami talabga teng bo'lsa, unda:

a) Zahiralar qisqaradi va tadbirkorlar ishlab chiqarishni kengaytira boshlaydilar;

b) Zahiralar o'zgarmaydi, biroq tadbirkorlar ishlab chiqarishni kengaytiradilar;

v) Zahiralar o'sadi va tadbirkorlar ishlab chiqarishni qisqartira boshlaydilar;

g) Zahiralar hajmi va ishlab chiqarish darajasi o'zgarmaydi;

d) Zahiralar o'zgarmaydi, biroq tadbirkorlar ishlab chiqarishni qisqartiradilar.

89 Agar iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan va sotilgan SMM teng bo'lsa, unda:

a) Jami daromad jami taklifga teng;

b) «kirimlar» «chiqimlar» ga teng;

v) Iqtisodiyot to'la bandlik va barqaror narxlarda amal qiladi;

g) Barcha javoblar to'g'ri;

d) Faqat «a» va «b» javoblar to'g'ri.

90 Ushbu mamlakat eksportining o'sishi boshqa teng sharoitlarda:

a) Jami talabni ko'paytiradi, biroq milliy daromadni kamaytiradi;

b) Jami talabni kamaytiradi va milliy daromadni ko'paytiradi;

v) Sof eksportni ko'paytiradi;

g) Jami talab va milliy daromadni ko'paytiradi;

d) Faqat «v» va «g» javoblar to'g'ri.

91 Quyidagilardan qaysi biri «kirimlar» tushunchasiga kiradi?

a) Investisiyalar;

b) Jamg'armalar;

v) Soliqlar;

- g) Import;
- d) Barcha javoblar noto'g'ri.

92 Agar jami talab siljishi quyidagi kesimlardan birida yuz bersa, jami talabning ko'payishi muvozanatli SMM va narxlar darajasining o'sishiga olib keladi:

- a) A,S egri chiziqning Keyns kesimida;
- b) AS egri chiziqning oraliq kesimida;
- v) AS egri chiziqning Keyns va oraliq kesimlarida;
- g) AS egri chiziqning klassik kesimida;
- d) AS egri chiziqning Keyns, oraliq va klassik kesimlarida.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: "O'zbekiston" 1998.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T.: "O'zbekiston" 2003.
3. Azizxo'jaev A va boshq. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: "O'zbekiston" 2002.
4. Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari. T.: "Mehnat" 1997.
5. Abdurahmonov Q. X. va boshq. "Mehnat iqtisodiyoti va sosiolo-giyasi. T.: "Mehnat" 2002.
6. Макконел К. Р., Брю С. Л. Экономикс. В 2 т.: пер. с англ. Таллин 1993.
7. O'lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. T.: "Mehnat" 1997.
8. Avt. jamoasi. Menejment va biznes asoslari. T.: "Mehnat" 1997.
9. Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. T.: "O'zbekiston" 1999.
10. Практикум. Микро и макроэкономика. под ред. Огибина. Бишкек. 1997.
11. Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza. T. 1999.

WEB manbalar va Internet saytlari

1. **"Iqtisodiy axborotnoma" jurnalining electron talqini**

<http://www.reviev.uz>

Jurnal boshqaruv, iqtisodiyot, marketing sohalari jahon tajribasi va hozirgi davr rivojlanish sur'atlarini yoritadi. Jurnalda davlatning iqtisodiy siyosati, mavjud iqtisodiy vaziyat, iqtisodiyot sohalari bo'yicha rivojlanish tendensiyalari, texnologiyalar kabi mavzular bo'yicha ilmiy va tahliliy maqolalar bilan tanishish mumkin.

2. **Iqtisodiy tadqiqotlar markazi sayti**

<http://www.cer.uz>

Iqtisodiy tadqiqotlar markazi mamlakatimizda mustaqil faoliyat olib boruvchi ilmiy maqomga ega bo'lgan muassasa hisoblanib, uning xodimlari tomonidan jamiyat ijtimoiy - iqtisodiy hayotining barcha sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Mazkur ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan sayt orqali tanishish mumkin.

3. Markaziy Osiyo taraqqiyot portali

<http://www.cagateway.org> – markazning asosiy manzili

<http://forum.cagateway.org> – markazning forumi

<http://experts.cagateway.org> – ekspert va maslahatchilar ma'lumot bazasi

<http://calendar.cagateway.org> – mintaqa yangiliklari.

Sayt asosan Markaziy Osiyo mintaqasida kechayotgan ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarga bag'ishlangan.

4. Resources for economists on the Internet

<http://rfe.wustl.edu/EconFAQ.html>

Amerika iqtisodiyot assosiasiyasi tomonidan ta'minlanuvchi internet – resurslar katalogi. Iqtisodiy bilimlarga ixtisoslashgan tashkilotlar, statistik ma'lumotlar, ta'limga oid materiallar, grantlar haqidagi va boshqa ko'plab ma'lumotlarni ushbu internet resurslari katalogidan olish mumkin.

5. British Library of Political & Economic Science

<http://www.library.ise.ac.uk>

London iqtisodiyot maktabining rasmiy sayti. Saytda kutubxona katalogi va katta hajmda iqtisodiy fanlarga oid electron materiallar mavjud.



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kirish Введение Preface	3
Milliy iqtisodiyot: asosiy natijalar va ularni o'lchash Национальная экономика: основные результаты и их измерение National economy: basic results and their measure	6

Makroiqtisodiy muvozanatsizlik: bozor iqtisodiyotining siklli rivojlanishi Макроэкономическое неравновесие: циклическое развитие рыночной экономики Macroeconomic irregularity: development cycle of market economy	11
Byudjet kamomadi va davlat qarzi Бюджетный дефицит и государственный долг Budget deficiency and state debt	18
Jahon xo'jaligi. Xalqaro savdo va savdo siyosati Мировое хозяйство. Международная торговля и торговая политика World management. International trade and trade policy	26
Mehnat iqtisodiyoti va ijtimoiy mehnat munosabatlarini boshqarish Экономика труда и управление социально – экономическими отношениями Labor economy and social – economic management	32
Mehnat bozori, bandlik, ishsizlik Рынок труда, занятость, безработица Labor market, employment, unemployment	37
Aholining turmush darajasi Уровень жизни населения Living level of population	44
Makroiqtisodiyotdan testlar to'plami Сборник тестов по макроэкономике Tests collection on macro economy	54
Foydalanilgan adabiyotlar va WEB manbalar Использованная литература и WEB ссылки Used literature and web references	70

A. A. Abduvohidov, O.R. Rayimberdieva

MAKROIQTISODIYOT

Guliston Davlat Universiteti- 2006

Muharrir i.f.n. dosent O. T. Sattorqulov
Texnik muharrir O'. A. Mamanov
Komp'yuterda sahifalovchi B. A. Abduvohidova

Bosishga ruxsat etildi . Bichimi . Bosma tabog'i .
Adadi . Buyurtma . Bahosi shartnoma asosida.

Guliston Davlat Universiteti, 707000, Guliston shahri 4 - mavze. Shartnoma
.GulDU bosmaxonasida chop etildi.